

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK : _____

YAKUBOVA SHAXNOZA ERKINBOYEVNA

"KASB – HUNAR KOLLEJLARIDA ESTETIK TARBIYANI AMALGA
OSHIRISHNING INNOVATSION USLUBLARI"

Mutaxassislik - 5A 110901

PEDAGOGIKA


DISSERTATSIYA

Magistr akademik darajasini olish uchun

of master thesis work of Yakubova Shaxnoza (Urgench State University) on
topic "Innovative methods of aesthetic upbringing of professional colleges"

Ilmiy rahbar p.f.n dots.

Xodjaniyazov S.U.



Urganch 2015

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Kasb- hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning nazariy masalalari.....	10
1.1 Muammoning o`rganilganlik darajasi.....	10
1.2 Kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda estetik ong, estetik madaniyat va ta`lim taraqqiyotining uyg`unligi.....	19
I bobga xulosa.....	33
II – bob. Milliy estetik tarbiyani rivojlantirish – jamiyatning ma`naviy qiyofasi va taraqqiyotining ustuvor vazifasi.....	34
2.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchi shaxsini shakllanishida estetik dunyoqarash va madaniyatning o`rni.....	34
2.2 Kasb – hunar kolleji o`quvchilarini estetik tarbiyasida oilaning roli.....	47
II bobga xulosa.....	55
III- bob Ta`lim va tarbiya jarayonida estetik tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy assoslari.....	58
3.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchilarining estetik tarbiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuv.....	58
3.2 Tajriba – sinov natijalari.....	69
III bobga xulosa	74
Umumiy xulosa.....	75
Foydalilanigan adabiyotlar ro`yhati.....	77
Ilovalar	80

Kasb – hunar kollejlarida estetik tarbiyani amalga oshirishning innovatsion uslublari

Mundarija

Kirish.

I bob. Kasb- hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning nazariy masalalari

1.3 Muammoning o`rganilganlik darajasi.

1.4 Kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda estetik ong, estetik madaniyat va ta`lim taraqqiyotining uyg`unligi.

I bobga xulosa

II – bob. Milliy estetik tarbiyani rivojlantirish – jamiyatning ma`naviy qiyofasi va taraqqiyotining ustuvor vazifasi.

2.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchi shaxsini shakllanishida estetik dunyoqarash va madaniyatning o`rni.

2.2 Kasb – hunar kolleji o`quvchilari estetik tarbiyasida oilaning roli.

II bobga xulosa

III. Ta`lim va tarbiya jarayonida estetik tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy asoslari.

3.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchilarining estetik tarbiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuv.

3.2 Tajriba – sinov natijalari

III bobga xulosa

Umumiy xulosa

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yhati

Ilovalar

Kirish

Mavzuning dolzarbliги

Mustaqillikimiz sharofati bilan xalq ta`limi tizimida, chunonchi estetik ta`lim va tarbiyaga alohida e`tibor berila boshladi. Negaki ta`lim muassasalarida ta`lim olayotgan har bir yosh avlod dunyoqarashida estetik ruh, estetik didni shakllantirish, yoshlarni go`zallik, nafosat olamida tarbiyalash ertangi kunimizning, milliy boqiy an`analarimizning ustuvor vazifalaridan biri bo`lib qoldi. Yurtimiz tabiatini yanada yaxshilash uchun, vatanimiz qiyofasini go`zalligini ta`minlashda, kelajak avlodning estetik madaniyati, estetik didi yuqori o`rinni egallaydi. Estetik tarbiyani shakllantirish kunning dolzarb masalasiga aylangan, negaki estetik tarbiya shakllanmasdan turib inson go`zallikni anglay olmasligi yoki bo`lmasa go`zallikni qadriga yetmasligi mumkin. Xalqimiz orasida qadimda ma`lum bo`lgan estetik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o`rganishimiz, boy tariximizning go`zalligini anglashimiz, avaylab – asrab qadriga yetmog`imiz lozim. Kasb-hunar kolleji talabalarini o`qitish jarayonida estetik tarbiyasini rivojlanantirish muhim vazifa hisoblanadi. Estetik tarbiyaning bosh maqsadini O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Jamiyatimiz hayotida hal etuvchi masalalar ichida ma`lumot olishda tarbiya tizimini kardinal tarzida qayta qurish bo`yicha qonun loyixalari yangi davr talabi darajasiga ko`tarish imkoniyatlarini berish bilan birga garmonik rivojlanayotgan kelgusi avlodni tarbiyalashdan iboratdir» – deb bejiz ta`kidlamagan. [4. 24b]

Bu o`rinda shuni ta`kidlash zarurki, kadrlar tayyorlash bo`yicha Milliy Dasturimiz inson omiliga katta urg`u beradi. Bundan maqsad va vazifalarni strategiyasidan boshlab, to yangi dasturni aniq va ravshan har tomonlama ta`lim – tarbiya jarayoniga qaratilgan. Mazkur mavzuning yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi dissertatsion tadqiqot muammosining muayyan darajadagi dolzarbligi va yangiligini belgilaydi. Yurtboshimiz Islom Karimov o`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida so`zlagan “Ijobiy ishlarimizni ohiriga yetkazaylik” deb nomlangan nutqida

"Bizning bugun erishgan eng katta yutug`imiz, eng katta boyligimiz – xalqimizning aql zakovati, uning tanlagan yo`limizga ishonchi, fuqorolar totuvligi, yurtimizning go`zalligi, tinchligi va osoyishtaligidir. Biz bunday qadryatlarni qadriga yetishimiz darkor" deb ta`kidlaganlari xalqimizni yanada go`zallahishiga, boqiy an`analarimizni avloddan avlodga yetkazishimizda muhim ko`prik bo`lishimiz lozimligini uqtirgan bo`lsalar ajab emas. [6. 25b]

Estetik vaziyatni yaxshilashga ta`sir ko`rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a`zosida zamonaviy estetik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Shunday shaxsgina ijtimoiy taraqqiyot mo`ljallarini va millat manfaatlarini chuqur anglab etadi, Vatan ravnaqi yo`lida xizmat qiladi. Prezidentimiz I.Karimov ma`naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi "Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat", - degan edi. bunday fikr negizida albatda yuksak estetik did, va madaniyat belgilari ko`rsatilgan ilmiy asos yashiringan. [9. 42b]

Barkamol inson shaxsi ma`naviy qiyofasida estetik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining asosiy maqsadi - yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog`lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Binobarin, yosh avlodni boy madaniy merosimiz, tarixiy an`analarimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash Respublikamizda amalga oshirilayotgan uzlusiz ta`lim-tarbiya tizimini isloh qilishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. "Millatni millat qiladigan yoshlar. Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo`lishlari shart"- deb ta`kidlagan edi Prezident I.A.Karimov. [5. 72b]

Zero, ta`lim tizimi oldida turgan muhim vazifalaridan biri jahon tarixi va madaniyati ilg`or yutuqlarini to`liq egallagan yangi avlodni tarbiyalashdan iborat. Prezident I.A.Karimov qayd etganidek: "XXI asr bo`sag`asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jug`rofiy-siyosiy

tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda" - deganlar bu orqali yurtboshimiz estetik did va madaniyat shakllanmasdan turub, tabiatning go`zalligi, uning dilbarligini anglay olmaslik va uni saqlay olmaslik mumkin deya ko`rsatganlar. O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganidan so'ng qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy madaniy soxalarda katta yutuqlarga erishdi. «Shu bois, yoshlarimizning milliy g'oya davlatimiz, jamiyatimiz, xalqimizning yuksalishi yo'lida, buyuk Kelajak barpo etishdek ezgu maqsadga erishish va jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib obru — e'tibor topishimizda yagona bayroq, yagona birlashtiruvchi kuch qanot bo'lishi shart» - dedi davlatimiz raxbari. [12. 64b]

O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish baxtiga tuyassar bo'ldik. Shuningdek, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni o'rganish sharafiga tuyassar bo'ldik. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai-«Xalqimizning umuminsoniy qadrivatlarga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizdan avlodlarga o'tayotgan merosning kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtiga_n ona - zaminga bitmas - tiganmas mexrida milliy g'ururimizda» - deyishlari bejiz emas. ChunKi o'tmish buyuk allomalarining qoldirgan boy ma'naviy meroslarini tiklash, ularning ta'limotlarini o'rganish va hayotga tadbiq etishdek ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Zeroki, xalqimizning kuchi, avvalo uning boy va ma'naviy merosga ega ekanligidandir. Shuning uchun ma'naviy meros sifatida ota-bobolarimizdan bizga etib kelgan ma'naviy boyliklardan badiiy va san'at asarlari, estetikaga oid juda qimmatli fikrlar, qarashlar va ta'limotlarni o'rganish, bilish va hayotga tadbiq etish bizning burchimizdir.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi:

Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning o`ziga xos ijtimoiy hususiyatlarini o`rganish, shu asosda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

- kasb-hunar kolleji o`quvchilarining estetik ta`lim-tarbiyasini shakllantirishda innovatsion uslublarni yaratish;
- kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetika bilim asoslari, estetik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishning nazariy-pedagogik va psixologik jixatlarini o`rganish;
- axloqiy - estetik tarbiyaga oid adabiyot va manbalarni taxlil qilish va batafsil o`rganish;
- kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishda o`zaro pedagogik hamkorlikni yo`lga qo`yish;
- kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishda o`quvchi shaxsiga psixik ta`sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash;
- pedagogik-psixologik tajriba sinov o`tkazish va uning natijalarini taxlil qilish asosida uslubiy tavsiyalar va ko`rsatmalar ishlab chiqish.

Magistrlik dissertatsiyasining ob`ekti:

Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiya negizida estetik madaniyatni shakllantiruvchi mezon va muhitni tashkil qilish.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti:

Kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning innovatsion uslublarini yaratish.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy tekshirish metodlari:

- Kuzatish
- Suhbat
- Qiyosiy tahlil

-Anketa

-Matematik – statistika

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy farazi:

Agarda;

- kasb-hunar kollejlarida estetik ta`lim-tarbiyani takomillashtirishda, o`quvchilar uchun maxsus ekskursiyalar, innovatsion loyihamalar yaratilsa;
- kollej o`quvchilarining estetik didini oshirishni innovatsion usullari amaliyotga tadbiq etilsa;
- kasb-hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda oila va jamoatchilikning hamkorligini faollashtirish bir tizimga keltirilsa;
- kollej o`quvchilarining estetik madaniyati va estetik dunyoqarashini oshirishda shuningdek estetik tarbiya negizida katta natijaga erishgan bo`lamiz.

Himoyaga olib chiqilgan holatlar:

- kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida estetik did va madaniyatini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi;
- kollej o`quvchilarini estetik tarbiyasini oshirishda oila va jamoatchilik hamkorligini ishlab chiqish;
- kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning samarali yo`llarini yaratish;
- ta`lim muassasasi va oila hamkorligida estetik dunyoqarash va ongi shakllantirish tizimini ishlab chiqish.
- kasb-hunar kollejlari o`quvchilar tafakkurida estetik madaniyat tushunchasi, qalbida estetik tarbiya mazmun mohiyatini shakllantirish borasida nafaqat har bir o`qituvchi o`ziga xos o`quvchilarga ta`sir qiluvchi uslub, vosita, shakl kabi holatlardan foydalana olishi, ularni asosi hisoblangan yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni hayotga tadbiq qilib, o`quvchilarda estetik madaniyat doirasini kengaytirib, ma`lum bilim, ko`nikma, malaka xosil qiladigan ma`lumotlar ta`lim – tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish metodikasini ishlab chiqishlari kerak.

- mavzu yuzasidan turli ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qiluvchilar uchun zarur bo`lgan manbalarni tanlash ilg`or ish tajribalarini ommalashtirish kabi jarayonlarga e'tiborini qaratish zarur.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi:

- Xorazm viloyati, Urganch shahri Urganch Ijtimoiy iqtisodiyot kasb – hunar kollejida birinchi bora 78 nafar, o`quvchilar bilan hamkorlikda tajriba – sinovlari olib borildi;
- kasb-hunar kollejida o`quvchilar estetik tarbiyasini oshirish borasida innovations uslublardan foydalanildi;
- kasb-hunar kollejlarining turli bosqichlarida estetik madaniyat, estetik tarbiya yuzasidan mavzuga xos ta`lim tarbiyaviy tadbirlar tizimini yaratildi va hayotiy amaliyotda tashkil qilindi.
- kasb-hunar kollejlari o`quvchilari tafakkurida estetik did va madaniyat, estetik tarbiya jarayonini shakllantirish yuzasidan zarur bo`lgan bilim ko`nikma, malaka mazmunlarini ochib berishga yo`naltirilgan uslubiy tavsiyalar tayyorlandi.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati

- kasb- hunar kollejlarida o`quvchilar estetik tarbiyasini shakllantirishning innovatsion usullari yaratildi.
- kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ongida estetik did va madaniyat tushunchalari, estetik tarbiya mazmun mohiyatlarini shakllantirish borasida olib boriladigan ta`lim – tarbiyaviy tadbirlarni o`quvchilarning yoshi, individual hususiyatlari, bo`lg`usi kasbi kabilarni hisobga olish va shu borada o`tkaziladigan mashg`ulotlarni jamoa va yakka tartibda amalga oshirilsa, o`quvchi yoshlarning estetik ta`lim-tarbiyasi samaradorlik darajasi yanada yuqori darajaga ko`tarilishi tasdiqlandi.
- mavzu yuzasidan o`quvchilar orasida tashkil qilingan pedagogik – psixologik targ`ibot ishlarining didaktik jihatlari yaratildi.

- yaratilgan g‘oya pedagogik psixologiya fani mazmunini boyitadi va rivojlantiradi. Aynan “Pedagogika”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Oila pedagogikasi” kabi fanlar mavzumizga keltirilgan na`munaviy tajribalar o`ziga xos samaradorlik darajasiga erishish uchun manba hizmatini o`taydi.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asoslari:

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta’limning ustivor yo‘nalish ekanligi haqidagi asosiy g‘oyalar, tadqiqotning me’yoriy bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan fikr va g‘oyalar, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», boshqaruv organlarining me’yoriy xujjalari, Respublika Konstitutsiyasi, inson kamolotiga oid Sharq ijtimoiy, ma’naviy merosi; Buyuk ajdodlarimizning ta’lim- tarbiya to‘g‘risidagi ta’limotlari.

Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy natijalarining haqqoniyligi

Ilmiy dissertatsiya ishimizda kasb-hunar kolleji o`quvchilarini estetik tarbiyasining pedagogik va psixologik jixatlari o’rganilgan shuningdek Urganch iqtisodiyot kasb-hunar kollejida tajriba sinovlari o`tkazilib, Pedagogika va psixologiya kafedrasi ilmiy amaliy simenarlarda tahlil qilingan ; o`quvchilarda estetik ongni shakllantirish, estetik bilimlar, tushunchalar va tasavvurlarni hosil qilishga doir didaktik tamoyillar va mezonlar umumlashtirilgan, va shu asosda UrDu Filologik tadqiqotlar markazi “Tafakkur ziyosi XXXII tom” va “Iste`dod ziyosi 4 jild” nomli to`plamlarda maqolalar chop qilingan va kasb-hunar kolleji o`quvchilarining estetik tarbiyasi jarayonini tavsiflovchi asosiy nazariy tushunchalar ilmiy ta’rifi berilgan. Shuningdek izlanishning ilmiy-metodik asoslariga, turlicha izlanish usullariga va tajriba sinov yo‘llari bilan tasdiqlanganligi hamda olingan xulosalarning sinovdan o`tkazilganligi bilan asoslanadi.Tadqiqot ishi o‘zining uzviyligi va uzlucksizligi bilan (2014-2015 yillarda tajribada o‘rganildi) asoslanadi.

Magistrlik dissertatsiyadan tuzilishi .

Dissertatsiya kirish, 3 bob, 6 ta paragraf, umumiylar xulosalar va tavsiyalar; foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

I bob. Kasb- hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishning nazariy masalalari

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Estetik tarbiya – bu eng avvolo insonning voqelikdagi va san’atdagi go’zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobilyatini o’stiradi . Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat, faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya’ni go’zallik qonuni bo’yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoitlarga bog’liq. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – jamiyat a’zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go’zallikni to’laqonli his etishga ko’maklashishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san’at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko’rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlар, turmush va texnika, sport va milliy urf – odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda mihim omillaridandir. Estetik tarbiyani to’la amalga oshirmay turib axloqiy, g’oyaviy – siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo’lmaydi. Estetik tarbiyaning asosiy ma’nosi va vazifasi kishilardan dunyo go’zalligi to’g’risida his- tuyg’ular, tassavur va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsning har tomonlama va uyg’un rivojlanishiga ko’maklashishidan iborat.

Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda san’at asarlarida go’zallikni ko’ra bilish, uni to’g’ri tushinish va qadrlash qobilyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go’zallik ato etish qobilyatini tarbiyalash , hayot va san’atda bema’nilikka, xunulikka qarshi kurash hamda qobilyatiga qarab san’atda o’zi-ning ijodiy kamolotini ko’rsatish nazarda tutadi. Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo’lgan go’zallikni to’g’ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go’zallik uchun kurashga o’rgatishdan iborat. Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin :

Birinchidan, inson o'zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o'zlashtiradi. Undagi go'zallikni kashf etadi va idrok qiladi. Ikkinchidan, estetik tarbiya ishning barcha usul va vositalari kishida to'g'ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlantirishga qaratilmog' lozim. Ya'ni kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo'lgan go'zallikni yoki xunuklikni to'g'ri aks ettirishi kerak. Uchinchidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlantirishni, kishilarni har qanday xunuklik, yaramaslikka nafrat ko'zi bilan qarash, go'zallikni ijod qilish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi .

Estetikaning maqsadi – insonda hayotdagi, san'atdagi go'zalliklarni umumjahon qadriyatlar nuqtai nazardan idrok eta bilish va baho bera olish qobilyatini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir. Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan deb o'z mehnati bilan hayot go'zalligiga qo'shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko'taruvchi komil insonni tushunamiz.

“Agar kishini turmush ustozi dono qilmasa, hech dono unga so'z o'rgotmoq uchun ovora bo'lmasinki, mehnati zoya ketadi“, - deydi Qaykovus. [14. 103b]

Demak, kishini tarbiyalashda hayotiy ta'sirining roli Qaykovuzning diqqatidan chetda qolmagan . Yana u tarbiyani inson aqlini, shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Uning fikricha , dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir. Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmani keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning “ko'rish“, “eshitish“, tabiat ko'rinishlari, atrof muhitdagi go'zalliklarni ajrata bilish va baholash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan.

Buning uchun ashula, musiqali o'yin, rasm solish, haykalchalar yasash mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Estetik tarbiya aqliy, ahloqiy, ekologik va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq. Estetik tarbiya yosh avlodning ahloq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. San'atga ehtiyojni, uni tushunushni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O'z navbatida san'at ham biror maqsaddagi qaratilgan estetik tarbiyaning muhim

vositasi hisoblanadi. Estetik hissiyot hayot hodisalarini yoki san'at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo'ladi . Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o'ziga hos kechinmadan iborat bo'lib, go'zallikni va yuksaklikni, fojiaviylik yoki kulgiliklikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning hayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot mahsulidir. U jamiyat estetik ongining darajasini aks ettiradi.

Ta'lim – tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror topdirishga hizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvurlariga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti – harakatlariga, xulq – atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiyligi maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisan anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya mzasadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqorolarni har tomonlama rivojlanishiga, "rux va badan " hamaohangligini qaror topdirishga yo'naltirilgan edi.

Aflatun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir – biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiyligi ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror topdirishga, yagona ahloqiy xulq – atvor va fuqorolik hislat fazilatlarini shakllantirishga hizmat qilgan edi. Bugungi kunda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omili ortib, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ezgu hislat - fazilatlari, ongliligi, faolligi, ijodiy qobiliyatlar o'smoqda. Ikkinchidan, O'zbekiston aholisining ko'pchiliginin umumiyligi madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib boryapti. Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyotining keng o'rinni egallab boroyatganligi qonunchiliginin yanada rivojlanib amal qilinayotganligi fuqorolarning umumiyligi madaniyati, ayniqsa, estetik madaniyati darajasining yuksalib borishining taqozo etmoqda. To'rtinchidan, hozirgi davr ilmiy

texnika inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib beryapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruhiy holatining ham tubdan o'zgarishini, ijtimoiy ruhiy, ahloqiy estetik saviyasini oshirishni taqozo etmoqda. Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqlas, "oynai jahon" kabi ommaviy axborot vositalaring turmshdan keng o'rinn olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinar, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilar edi. Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad – yo'naliшlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir – biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama – qarshi qo'yish ham xato bo'ladi. Shuni esda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Estetik tarbiya insoning estetik ongning shakllantirish jarayonida uni ahloqiy mehnat ekologik jihatlardan tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi. Estetik tarbiyaning ahloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg'araslikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi. Esetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog'liqligi esa tabiatga beg'araz, insoniy munosabatda bo'lishida, jamiyat bilan tabiat o'rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o'rnatishda namoyon bo'ladi. [31. 59 b]

Shunday qilib estetik tarbiya – bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan

ta’lim – tarbiya sohasidir. Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida san’at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o’z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a’zolarini, ayniqsa , yosh avlodning faol ishtirok etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did – farosat va estetik talab – ehtiyojlari rivojlangan bo’lishi zarur . Estetik tarbiya ijtimoiy faol , har tomonlama va hamomhang rivojlangan shaxsni tarbiyala barkamol, ahloqan yetuk, ma’naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi. Estetikaning yaralish tarixi haqida ham to`xtaladigan bo`lsak bu fan eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtini o’z ichiga oladi. Biroq u o’zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo’lmish go’zallik va san’at haqidagi mulohazalar har xil san’at turlariga bag’ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o’z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo’lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714—1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug’ olmon faylasufi Laybnits (1646-1716) ta’limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi. Laybnits inson ma’naviy olamini uch sohaga – aql, ixtiyor, hissiyotga bo’ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o’rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aqlni o’rganadigan fan–mantiq, ixtiyorni o’rganuvchi fan esa-axloqshunoslik (etika) ni falsafada ko’pdan buyon o’z o’rni bor edi. Biroq hissiyotni o’rganadigan fan falsafiy maqomdagi o’z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi hizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos—«oyestetikos» so’zidan «estetika» (olmoncha «estetik»- «eshtetik») iborasini olib, ana shu bo’shliqni to’ldirdi.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida ilgari surdi. Lekin, ko’p o’tmay, u goh «go’zallik falsafasi», goh «san’at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Estetika fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Hegel esa o’z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo’llashga urinishlar bo’ldi. So’zning o’z-o’zicha bizni

qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu—«san’at falsafasi» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda—«badiiy ijod falsafasi».

Gegelning «estetika» atamasidan ko’ngli to’lmaganligiga jiddiy sabablar bor. Bulardan biri—yuqorida uning o’zi aytib o’tgan fikrlari bo’lsa, ikkinchisi—mazkur so’zning barcha his-tuyg’ularga taalluqliligi. Vaholanki, fanimiz faqat nafosatli his tuyg’ular va ularning ziddini nazarda tutadi. Ayniqsa, mana shu ikkinchi sababga ko’ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi shubhali. Buning ustiga allaqachon fanimizning tadqiqot doirasi san’at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan. Shu bois biz «nafosatshunoslik» atamasini ilmiy muomalaga kiritishni maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz. Zero mazkur atamaga asos bo’lgan «nafis», «nafislik», «nafosat» so’zlari o’z qamrovi bilan fanimiz talabiga to’la javob bera oladi. «Nafis» so’zi «O’zbek tilining izohli lug’ati»da-go’zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak ma’nolarida izohlanadi. Bundan tashqari «estetika» («estetik») so’zi olmonlardagi yoki ruslardagi kabi bizda keng yoyilib, xalqimiz nutqiga singishib ketgan emas.

Hozirgi paytda texnika nafosatshunosligi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go’zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham estetika va estetik tarbiya shug’ullanadi. Shu bois uning qamrovini san’atning o’zi bilangina chegaralab qo’yishga haqqimiz yo’q. Zero bugungi kunda inson o’zini o’rab turgan barcha narsa-hodisalarining go’zal bo’lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan tayyora, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog’lar—hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim. [20. 63b]

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, demak, «go’zallik falsafasi» degan ibora estetik tarbiyaga ko’proq mos keladi. Negaki, estetik tarbiya faqat san’atdagi go’zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go’zallikni ham o’rganadi.

Shuningdek, go'zallikdan boshqa ulug'vorlik, fojiaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham nafosatshunoslik ya`ni estetik tarbiyaning zimmasida. Lekin, bu o'rinda, shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go'zallik, bir tomondan, unsur sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zi go'zallikka nisbatan unsur vazifasini o'taydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo'lishini biz nafosat deb ataymiz. Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, etakchi xususiyati hisoblanadi. Shu bois u nafosatshunoslikning asosiy mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi nafosatdorlik tabiatiga ega bo'lolmaydi. Masalan, ulug'vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqdorga asoslanadi. Buxorodagi Arslonxon minorasi yoxud Minorai Kalon ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi, unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxona mo'risidan zavqlanolmaysiz. Yoki yonbag'irdan turib, toqqa tikilsangiz nafosat zavqini tuyasiz, ammo xuddi shunday balandlikdagi shahar chetida o'sib chiqqan axlat «tog'i»ga qarab zavqlanmaysiz. CHunki Arslonxon minorasi me'morlik san'ati asari sifatida go'zallik qonuniyatları asosida bunyod etilgan; tog' esa tabiat yaratgan ulug'vor go'zallik. Zavod mo'risida ham, axlat «tog'»ida ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa—go'zallik etishmaydi. Minora bilan tog'dagi hajmni salobatga aylantiruvchi unsur, bu—go'zallik. Fojeaviylik xususiyatida ham go'zallikning ishtirokini ko'rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlisda bo'lib o'tgan rus va fransuz qo'shinlari to'qnashuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik: bir qo'lida bayroq dastasini ushlagancha ko'm-ko'k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit—bayroq dor zabitning tepasiga kelgan Napoleon uni o'lgan deb o'ylab, bu manzaradan hayratlanib: «Mana bu—go'zal o'lim!», deydi. Bu o'rinda asar qahramonining o'limi—fojeaviylik, o'limning qahramonlikka aylanishi—ulug'vorlik; fojeaviylik bilan ulug'vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Demak, nafosatshunoslikning asosiy

tadqiqot ob'ekti—go'zallik, biroq, san'at ham o'z navbatida nafosatshunoslikning go'zallik kabi keng qamrovli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. [16. 85b]

San'at estetikaning ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda nafosatning xususiyatlari bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda nafosatshunoslik san'atning ko'makchisi, etakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lismidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchchi tomondan, san'at uchun umumiylar qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. Shunday qilib, nafosatshunoslik san'atni to'la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi-idrok etuvchiga etib borgunigacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. ZOTAN «San'at falsafasi» iborasining siri ana shunda. Tabiatga, insonga, insoniy munosabatlarga ko'pincha biz san'atning buyuk ijodkorlari ko'zi bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Bizni hayratga soladigan, ajoyib tabiat hodisalari bilan to'qnashganimizda beixtiyor: «Qanday go'zal, Xuddi Van Gogdagidek-a Levitandagidek, Rembrantdagidek, Goyyadagidek va h. » deb xitob qilamiz. Bunday hayratli holatga kelish tasodifiy emas, chunki Van Gog, Levitan, Rembrant, Goyya va b. O'zlari yashab in'ikos etgan tabiatni, uning bag'ridagi odamlar va hayvonlarni umumlashtirilgan, ramziy shakllardagi ob'ektiv go'zalliklarini ochib namoyish qilganlar va ularni idrok etish bilan bog'liq ko'pchilikka xos kechinmalarni ifoda etganlar. [28. 71b]

Mustaqilligimizning asoschisi, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning hali sho'ro tuzumi hukm surib turgan sharoitda O'zbekistonning mustaqilligini e'lon qilganilarning bu mustaqillikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatib kelayotgan

qahromonona faoliyati ustivorlikning ajoyib namunasidir. Aqlu qahramonlik ko'pchilik omma tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisalar, lekin u kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan ahloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkinligining o'zi ulug'vor ahamiyat kasb etadi. Bu haqda jahon san'ati tarixida birinchi bo'lib, A.P. CHexov aytgan va yozgan edi. [23.201b]

CHexov orzusidagi qahramonlik, mardlik-ulug'vorlikni kundalik halol mehnatda, ahloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda o'z qadrini topadi. Ijtimoiy va nafosatli orzular bilan birga, ba'zi ulug'vorlik va pastkashlik, qiymatlari ham tubdan o'zgarib bosh xususiyatiga egadir. Bundan 30-40 yil oldin ulkan zavod, fabrikalar korxonalarning ko'piga bo'y cho'zgan trubalari tutunlari hayotdagi ulug'vorlik tarzida in'ikos etiladi. Insonga bo'ysundirilgan tabiat qiyofasi ijtimoiy ong tarkibiga singdirilar edi. Inson-tabiat ustidan, shaxs-to'da ustidan musobaqada ilg'or uchuvchi, konchi, sut sog'uvchi, olim, ishchi-halq ustidan mana shularning hamma-hammasi yaqin kunlardagi bizning ulug'vorlik orzuimizni tashkil qiladi. Bularning hammasi boshliqla o'zboshimchaligi, yoppasiga fidoiylik, yalpi va yakka hokimiyatchilik davlatning shaxs usidan buyruq hukmi zaminida vujudga kelgan ijtimoiy tuzum-sistemasining achchiq orzu-mevalaridir. Tabiat ustidan hukmronlik o'rniga u bilan hamohang bo'lish, ayrim o'zmachilik, ommaviy qaror, yalpi rozilik o'rniga ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish burch-vazifalarini ado etish bugungi kundagi ulug'vorlik orzusining asosiy mazmunini tashkil etadi. Ulug'vorlik o'zining har tomonlama ijodiy ifodasini san'atda topadi, uning barcha tur, xil va ko'rinishlar uchun ulug'vorlik mavzui asosiy tasvir ob'ektlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shubhasizki, san'atning turli ko'rinishlari, ulug'vorlik tasvirlashning xilma-xil imkoniyatlaridan foydalaniladi, aytish mumkinki, uning ayrim turlari-qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musiqa asarlari (simfoniya, oratoriya), me'morchilik va yodgorlik san'ati ko'rinishlari ulug'vorlik mavzusini badiiy o'zlahtirish earayonida vujudga kelgandir.

1.2 Kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda estetik ong, estetik madaniyat va ta`lim taraqqiyotining uyg`unligi.

Madaniyat taraqqiyoti darajasi jamiyatning manaviy ahvolini belgilab beradigan, uning oliy maqsadlariga gumanistik idealga nechog’li muvofiq kelishini ko’rsatadigan muhim omillardan biridir. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo’lsak, kasb-hunar kolleji o`quvchilari manaviyatini mustahkamlash va rivojlantirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, jamiyatning fazilatlaridan biri madaniyat va ma’naviyat, kishilarning ma’naviy olami, ularning hissiy qabul qilishi, ya’ni insoniyat degan umumiyligi tushunchani o’zida mujassamlashtirishda namoyondir. Bugungi kunga kelib insonning estetik madaniyat shakllanishi qaysi yo’nalishlarda olib borilmoqda? Respublikamizda manaviyatni yuksaltirish uchun qanday ishlar amalgam oshirilmoqda? Bu savollarga javob berish uchun, eng avvalo, “estetik madaniyat” tushunchasiga aniqlik kiritib olaylik .

Estetik madaniyat – bu inson ehtiyojlarinig murakkab tizimi bo’lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko’nikmalar, bilimlari, me’yorlari, maslaklari bir – biri bilan chambarchas bog’lanib ketganligini ko’ramiz. Chunonchi, estetik hissiyotlar insonning hayot faoliyati to’laligini bildirsa, me’yorlar ijod va faoliyatining mezoniga solinishi vositasini anglatadi bilimlar insonning dunyoqarashini, ishonchini, estetik baholashining yo’nalishlarini, didlarini, qarashlarini belgilab beradi. Ha, estetik munosabatlar odamlarni ularning faoliyatidagi turli qarashlarini, shakl – shamoyilarini ma’lum bir maqsadga qaratadi.

Darhaqiqat, estetik madaniyat – bu faqat go’zallik qonunlari va me’yorlari asosida ijod qilishnigina anglatmaydi, shuningdek , u insonning tevarak – olamga nisbatan bo’lgan faoliyatini va munosabatini ham bildiradiki mazkur omillar inson, birinchi navbatda, gumanistik, umuminsoniy g’oyalarni, ideallarni o’zlashtirishi lozimligini nazarda tutadi. Shuning uchun estetik madaniyat jamiyatda juda ko’p vazifalarni bajaradi. Informativ, bilim ortirishga hizmat qilishlik, aksiologik (baholash -

orientatsiyalash) kommunikativ, regulativ, tarbiya, prognozlash estetik madaniyatning muhim funksiyalariga kiradi. (1 ilovaga qarang)

Bu yerda estetik madaniyaning yuqorida keltirilgan har bir funksiyalar bir – biri bilan chambarchas bog’liq. Estetik madaniyat tabiatni o’zlashtirish jarayoni va uning natijalarinig, mehnat faoliyati, mayishiy hayot, ijtimoiy hayotning estetik lahzalarini, sinflar va ruhlarning, estetik tarbiyaning nazariyasi hamda amaliyotini harakterlaydi, odamlar ijtimoiy-estetik faolligining turli – tuman shakllarini anglatadi, chunki amaliyot asosida odamlarning real ijtimoiy estetik ehtiyojlari qondiriladi. Shu boisdan uning jamiyat estetik madaniyati va shaxs estetik madaniyati kabi turlari mavjudligini yodda tutishimiz lozim bo’ladi

Hozirgi ilmmiy tasavvurlarga ko’ra, jamiyatning estetik madaniyati o’zida estetik obyektlarni va hodisani, estetik qadriyatlarning barcha turlarining, ularning tabiatini va faoliyat ko’rsatishlari haqidagi bilimlarni mujassamlashtiradi. Estetik ong odamlarning estetik faoliyati va ularning o’zaro munosabati estetik qadriyatlar, estetik tarbiya sosida o’sib kelayotgan yosh avlodga estetik madaniy fazilatlarni, voqelikni estetik qabul qilishi, shuningdek, estetik ong va estetik xatti – harakatlar ko’nikamalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shaxsning estetik madaniyati to’g’risida gap ketar ekan, bu tushuncha o’zida jamiyatning estetik madaniyatini, faqatgina o’z xalqining estetik va badiiy qadriyatlarini emas, balki butun insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni o’zlashtirishni , san’atni baholash va muhokama etish, ishga ijodiy munosabatda bo’lish, tabiatni e’zozlash va uni xurmat qilishni ham nazarda tutish lozim bo’ladi. Shaxsning estetik madaniyati inson faoliyatining barcha turlarida va shakllarida namoyon bo’ladi, u inson manaviy madaniyatining umumiy darajasining emas, balki individual estetik tasavvurlarini, munosabatlarini, xalq – atvorini, tafakkur va nutqni, hayot va mehnatni qamrab oladi . Shaxslararo munosabatlarni va hokazo tushunchalarni o’zida gavdalantiradi. [30. 96 b]

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, estetik madaniyatning muhim jihatlaridan biri o'tmish manaviy qadriyatlarni ijodiy o'zlashtirish bilan o'lchanadi. Ma'lumki, sho'ro estetikasida masalaning bu jihatga kam e'tibor berilar edi yoki umuman e'tibor berilmas edi. O'tmish qadriyatlari partiyaviy va sinfiy pozitsiya nuqtai nazaridan turib baholanar, ajdodlarimiz manaviy madaniyatining yaxlit – yaxlit qatlamlari nazar pisant qilinmasdi .

Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan manaviy estetik hodisalar – sofiylik, jadidchilik, kalom va boshqalar o'rganish doirasidan tashqarisida turadi yoki ular to'g'ridan – to'g'ri reaksiyon oqim deb baholanadi. Ansoriy Sanoiy, Attor, Rumiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'ony, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro va boshqa o'nlab buyuk zotlar ijodi yosh avlodni tarbiyalashda biror foydaga ega emas, deb baholandi.

Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy, diniy, badiiy me'rosi sho'ro davrida, asosan, inkor etildi yoki bu haqda hech narsa deyilmadi. Bunda inson faoliyatining o'tgan asrlarda yaratgan manaviy olami namunalari to'la ravishda o'z ifodasini topa olmadi. Bu esa, oqibatda, insoniyat bilan tarix shaxs bilan jamiyat orasida uzilishga, sun'iy passivlikka, befarqlikka, o'tmish manaviy estetik madaniyatiga mensimasdan qarashga olib keldi. Buning natijasida ijtimoiy loqaydlik o'zining eng oliy nuqtasiga yetdi. Bunday sog'lom aqlga zid hodisa yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Bo'ronli bekat" ("Asrlarni qaratgan kun") romanida o'z xaqqoniy badiiy idodasini topgan edi. "Manqurtlik" tushunchasi jamiyatdagi manaviy va estetik madaniyat inqirozini chuqur ifodalab beradi. Holbuki, estetik madaniyat jamiyat taraqqiyotining zarur unsure hisoblanadi, u inson mohiyatini ro'yobga chiqarish va tasdiqlashda muhim omil sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi, shu bilan u jamiyat hayotining eng tub asoslarida insoniylik taraqqiyotiga ko'maklashadi . [22. 43 b]

O'zbek xalqining estetik madaniyat ibtidosi uzoq asrlar qariga borib qadaladi. Ana shu madaniyat xalqimizning juda ko'p tarixiy va ijtimoiy narsalarini yengib o'tishda yaqindan ko'maklashadi. Bizgacha yetib kelgan madaniyat

yodgorlikalarida o'zbek xalqi o'tmisht madaniyatining turli jihatlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Shu xaqiqatni ham qayd etmoq lozimki estetik madaniyat, jamiyat va insonning manaviy hayotida muhim omil bo`lishiga qaramasdan, u faqatgina ma`naviy omillar bilan chegaralanib qolmaydi yoxud ijtimoiy ong shaklidagina saqlanmaydi.

U moddiy madaniyat buyumlari ham, ijtimoiy munosabatlarda va malakalrda ham "mana man" deb ko'zga tashlanishi mumkin . Boshqacha so'z bilan ifodalaganimizda, "estetik madaniyat" tushunchasini insoniyatning tarixiy tajribalarida, ijtimoiy – ruhiy fenomenlarda va hokazolarda aks etishi mumkin, ya'ni estetik madaniyat – bu tarixiy jihatdan vujudga kelgan va moddiy, ijtimoiy, siyosiy, manaviy sohani, insonni ijtimoiy subekti sifatida estetik ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi. Estetik madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga, ayniqsa, san'at (me'morchilik, raqs, musiqa) shaklida juda tez o'tadi. Chunki aynan san'at insonga ko'p asrlik haqiqat jarayonini izlashga dahldorlik imkonini beradi, O'tgan asrlar o'sha bizgacha yetib kelgan ajdodlarimizning dramatizm yozud fofiasiyligka to'la hayotini, quvonchini, qayg'u – alamini anglashga, insoniyat tajribasini o'rganishga yaqindan ko'maklashadi. Bu tajriba, ayni mahalda tarixiy mahorat, odamzotning ijtimoiy hotirasi, insoniyat taraqqiyotining obrazi, maqsadi , ideali sifatida maydonga chiqadi.

Estetik madaniyat insoniyatni bir butun organizm sifatida birlashtiruvchi kuchdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Samarqand va Buxorodagi me'morchilikka tegishli shosh asrlar – Shoxiy Zinda yodgorligi, Bibihonim madrasasi, Go'ri Amir, Ismoil Somoni maqbaralari, va boshqa binolar kishilikni yagona safga birlashishga da'vat etuvchi o'ziga hos chaqiriqlar bo'lib , asrlar o'sha yangrab turibdi. Mazkur me'moriy yodgorliklar asrlar davomida ijtimoiy ideallarga hizmat qilib kelar ekan, ular faqatgina o'tgan avlodlarning ijtimoiy tarixiy hayotini qayd etib qolmasdan, bizga, kelgusi avlodlarga ham murojat qilib manaviy jihatdan safarbar etib qalbimizga vatanparvarlik, xalqchilik, gumanizm, mehnatsevarlik tuyg'ularini payvand etadi . [27. 87 b]

Umuman olganda, estetik madaniyatni shakllantirish ulkan mehnatni talab qiluvchi, botinan – ma'lum darajada qarama – qarshi jarayondir. Inson hamisha ham biror – bir holat ta'siri ostida, ichki olami tadriji, mustaqil o'rganishi, o'z bilimini takomillashtirishi natijasida shaxsiy hayotida yuz bergen o'zgarishlarni darhol faxmlashi yoki ifodalashi oson kechadi . Aytish mumkinki, ijtimoiy tub islohatlar, manaviy yangilanishlar shart – sharoitida estetik madaniyat muhim ahamiyat kasb etad , ya'ni u har bir shaxsga yo'naltirilgan hissiyotlar tili vositasida muloqatga chorlaydi, har bir kishini aql idrokka, faxm – farosatga da'vat etadi , uning qalbiga kirib boradi . Estetik madaniyat tushunchasi tabiatda estetik munosabatda bo'lishni ham o'z ichiga oladi . Estetik madaniyat orqali odamlarning "estetik ma'suliyati", "estetik xulq atvori"ni yuksaltirish ancha o'ng'ay kechdi. Tabiatni asrab – avaylash tuyg'usi barcha odamlarning yorqin anglashilgan hissiyoti, odati, qat'iy ifodalangan tamoyilligi muhimdir . Tabiat hamisha ham insonga katta estetik ta'sir ko'rsatib keladi va shunday bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining o'tmishidagi, hozirgi kundagi hayoti bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi . Buyuk ajdodlarimiz chunonchi, Alisher Navoiy inson tabiat bilan muvofiq tarzda yashamog'i kerakligini muttasil ta'kidlaganlar. Siz – u biz yashab turgan hozirgi kunlarda ana shu tushunchani va tabiatga ehtirom bilan munosabatda bo'lish an'anasi qayta tiklamog'imiz lozim.

Kasb – hunar kolleji o`quvchi yoshlarida estetik ong va estetik madaniyatni shakllantirish davomida quyidagi estetik kategoriylar ham tarkib topib, rivojlanib boradi.

Estetik anglash bevosita estetik madaniyat bilan hamohanglikda rivojlanadi va tarkib topadi. Bu iborani asosiy tushunchalardan biri ekanligiga sababi shundaki, odatda falsafiy fanlarga doir ilmiy adabiyotlarda "anglash" o'rniga "ong" tushunchasi qo'llanilib kelinadi. Estetik anglash, aytib o'tganimizdek, estetik jarayonni tashkil etishi barobarida estetik munosabatni yuzaga keltiradi, ongning ana shu faoliyati ichki nafosatni shakllntiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, estetik anglash faqat estetik qadriyatlar yoxud obyektlarni idrok etishda emas, balki yangi

estetik qadriyatlar yaratishda ham faol ishtirok qiladi, ya’ni u estetik faoliyat jarayonida o’zining doimiy ulushiga ega: san’at asarining dunyoga kelishida, turmush sharoitini, ishlab chiqarishning go’zllashuvida va shunga o’xshash holatlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Estetik anglash inson ruhiyatida o’ziga xos, chuqur ijobiy rihiy o’zgarishlarni vujudga keltiradigan estetik holat. U estetik faoliyatning boshlanishidan avval insonni unga tayyorlovchi hodisa sifatida muhim: usiz estetik faoliyatning ro’y berishi mumkin emas. Estetik anglashning murakkab hodisa ekani estetik ihtiyoj, turli hislar va ma’naviy andozalarning har bir shaxs uchun alohida ruhiy evrilib tarzida namoyon bo’lishi bilan bog’liq: bu evrilib kuchli va asosan his-hayajon, ehtirosli kechinmalar asosida vujudga keladi. Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi, dastlab bu munosabat ongangan, intuitiv, biologik –genetik tarzda, keyinroq esa anglab yetilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro’y beradi.

Estetik munosabat. Estetik munosabatdan boshqa barcha munosabat turlari inson “aqlini taniganidan so’ng”, ya’ni go’daklik davridan o’tgandan keyin voqe bo’ladi. Masalan, go’dak hali uyat hissini bilmaydi, unda axloqiy munosabat hattoki ibtidoiy darajada ham shakllanmagan, xohlagan vaqtida, to’g’ri kelgan joyda tabiiy ehtiyojni qondiradi. Lekin u beshikda yotar ekan, tushib turgan ola-chanoq quyosh nuridan quvonadi, uni kuzatadi, u bilan o’yanagisi keladi yoki beshikka osig’liq rangli o’yinchoqdan zavqlanadi, g’adir-budur, shaklan qo’pol narsalarni emas, mayin duxobani yoki shunga o’xshash yumshoq, silliq narsalarni hush ko’radi, ularni siypalab zavqlanadi. Bularning bari estetik munosabatning insoniy mohiyat namoyon bo’luvchi hodisa sifatida ibtidodan mavjud ekanini ko’rsatadi. Shuningdek, qarab, umrining qolganini ko’proq to’shakda o’tkazayotgan kishi jisman zaifligi tufayli tashqi muhit bilan utilitar – empiric munosabatini davom ettira olmasligi mumkin, lekin u badiiy adabiyot o’qib, teletomosha ko’rib, musiqa eshitib zavqlanadi, ya’ni tashqi dunyoga estetik munosabatda bo’la biladi: inson moddiy boylik yaratishdan mahrum bo’lganpaytda ham estetik munosabat tufayli, to

o'lguncha o'z ma'naviyatini boyitish imkonini yo'qotmaydi. Estetik munosabatning qamrovligi, bir umrli ma'naviy hodisa sifatidagi ahamiyati ana shunda. [32. 201b]

Barcha munosabatlar qatori estetik munosabat ham ikki asosiy unsurdan tashkil topadi: obyekt va subyekt . Lekin bunda obyekt subyekt tomonidan belgilanadi: agar subyekat estetik jarayonga kirishmasa, uning munosabati,obyekt qanchalik go'zal yoki ulug'vor bo'lmasin, estetik shakl kasb etmaydi. Estetik jarayon esa subyektning botiniy his-tuyg'ulariga, kayfiyatiga, vaqtiga, kuzatishiga, mushohadasiga, fikrlash imkoniyati va fikrlash darajasiga, qobiliyatiga, iste'dodi, obyekt bilan o'rtadagi masofa tasavvuri kabi tug'ma hamda ta'lim, tarbiya va tajriba vositada vujudga kelgan qarashlarga bog'liq. Estetik munosabat ana shu estetik jarayonning pirovard natijasidir. Masalan, O'rol Tansiqboyevning “ Tog'dagi qishloq” asarini sotayotgan do'kon xizmatchisida bu rasmga nisbatan estetik munosabat tug'ilmaydi, sotuvchi unga faqat Tovar sifatida qaraydi, maqsadi uni iloji boricha kattaroq pulga sotish, ya'ni sotuvchi estetik jarayonni boshidan kechirmaydi, o'z vaqtin, kuzatishi, diqqat-e'tiborini asosan, oldi- sotdi jarayoniga yo'naltiradi, uning munosabati iqtisodiy-moliyaviy chegaradan nariga o'tmaydi. Rasmni sotib olgan xaridor esa unda Vatanning bir parchasini, tog' qishlog'inining o'ziga xos go'zalligini ko'radi, undagi ko'zga ko'rinishmaydigan, lekin botiniy bir tuyg'u bilan ilg'ab olinadigan ruhni, olislarda qolib ketgan bolalik deb atalgan umrning bir bo'lagini qalban his qiladi, ho'rsiniq aralash quvonch hissini tuyadi. Chunki unki butun botiniy- ruhiy muruvvatlarining faoliyati, ongi, diqqat-e'tibori, mushohadasi, tasavvuri, qobiliyati, intelektual tajribasi rasmdagi go'zallikning nimasi bilandir tanish va ayni paytda notanish ko'rinishini ilg'ab olishga qaratilgan; har gal u shu rasmga tikilganida ana shu ichki faoliyatga asoslangan jarayonni qayta boshdan kechiradi. Uning rasmga har galgi munosabati estetik munosabatdir. Shunday qilib, sotuvchi qo'liga tushgan mablag'dan qoniqish hosil qilsa, rasm ixlosmandi tasvirlangan manzara go'zalligidan, qalbida uyg'ongan hissiyotdan, olislarda “borib kelgan” xayolotidan, hatto tasavvurida”, shu tasavvur “ turkisi” tufayli paydo bo'lgan xayoliy manzaradan zavqlanadi. Yoki Ko'kaldosh madrasasi yonidan ishga

kechikishdan xavotirlanib shoshilinch o'tib borayotgan xizmatchini olaylik, mahobatli estetik obyektning ulug'vorligini his etmaydi, bu yodgorlikka nisbatan unda estetik munosabat yuzaga kelmaydi, chunki vaqt va kundalik tashvishlar iskanjasida, yuqoridagi sotuvchiga o'xshab estetik jarayonni boshidan kechirishga tayyor emas. Shunga o'xhash misollarni ko'plab keltirish mumkin. [26.32b]

Estetik ehtiyoj. Estetik anglash va shu asosdagi faoliyat jarayoninig ibtidosi estetik ehtiyojga borib taqladi. Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy – biologik, ham ijtimoiy – ma'naviy, mohiyatga ega; “go'zal nafs” , nafosatga tashnalik, insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda, keyinchalik uning butun umri moboynida takomillashib boradi, estetik muhokama, estetik baho, estetik did va estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi. Har bir shaxsdagi madaniyatlilik darajasi, ma'naviy salohiyati uning estetik ehyitoji darajasi bilan o'lchanadi. U “go'zal nafs” sifatida boshqa ehtiyojdan talab etilayotgan obyektdan moddiy – iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy va boshqa manfaatlar kutmasligi, beg'arazligi bilan ajralib turadi. Estetik ehtiyoj estetik hissiyot bilan uzbek, dialektik bog'liq; estetik ehtiyoj ko'pincha estetik hissiyotni uyg'otsa, ba'zan estetik hissiyot estetik ehtiyojni vujudga keltiradi. Masalan, siz “Mirzo Ulug'bek” spektaklini ko'rish xohishi – estetik ehtiyoj tufayli teatrga bordingiz; spektakl moboynida sizda estetik hissiyot – hayratlanish, zavqlanish, quvonish va boshqa tuyg'ular qo'zg'aldi. Spektakldan keyin esa u haqda mulohaza yuritishga, undagi ijobiy va salbiy qiyofalarni baholashga, qolaversa, yaqin kishilarga spektakl mazmunini o'z estetik nuqtayi nazaringizdan so'zlab berishga yoki Mirzo Ulug'bek suratini chizishga, unga atab she'r yozishga yoki u haqda insho yozishga ehtiyoj sezasiz. Demak, estetik ehtiyoj hissiyotni uyg'otsa, hissiyot yana estetik ehtiyojni, muayyan estetik hodisani o'zgacha badiiy – estetik talqin qilish, unga ijodiy yondashish ehtiyojini tug'diradi. Zero, J. Lokk aytganidek, “ nimaiki tushunchada bor ekan, u bundan avval hissiyotda mavjud edi; agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi uzatilmas ekan, u holda tafakkur uchun hech

qanday material berilmagan bo'ladi". Demak, estetik anglash avvalo estetik hissiyot bo'lishini taqozo etadi.

Estetik hissiyot. Ko'pincha adabiyotlarda esteik hissiyot "estetik tuyg'u" so'zi birlik shaklida beriladi. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha , bu unchalik tog'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikda – hislar yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq.

Estetik baho. Qadriyat va baho, yuzaki qaraganda, mohiyatan bir xil bo'lishi kerakdek tuyuladi. Aslida ular orasida o'ziga xos farq mavjud. To'g'ri, estetik qadriyat obyektning subyektga munosabatini anglatadi, obyekt, odatda, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu-muayyan go'zallik yoki ulug'vorlik hamma uchun ham, hamma vaqt ham bir xildagi go'zallik va ulug'vorlik bo'lib qolaveradi, degani emas. Chunki estetik baho subyektning obyektga munosabati, u obyektning qadriyatini belgilaydigan xususiy mezon, bu xususiylik shaxsga, jamiyatga va zamonga tegishlidir. Shu jihatdan bir obyekt-qadriyat har xil baholanishi va hatto muayyan vaqt mobaynida baholanmasligi mumkin. Shunday qilib, estetik baho shunday ma'naviy hodisaki, garchand qadriyat yaratmasa ham, qadriyatni idrok etish faqat u orqali amalga oshadi.

Estetik bahoning yana bir muhim xususiyati shundaki, u estetik anglash tuzilmasi ichidagi eng qamrovli, eng miqyosli ta'sirga ega. U ma'lum ma'noda estetik anglashning deyerli barcha unsurlari uchun mezon vazifasini o'taydi. Chunonchi, estetik hissiyot, estetik did va estetik idealda buni yaqqol ko'rish mumkin. Ayniqsa, u estetik did bilan chambarchas bog'liq. Endi ana shu estetik did masalasini ko'rib chiqamiz.

Estetik did. Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomonidan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, subyektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu

sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik did deganda – insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi. Masalan, osmonni qora bulut to'liq qoplاب olganini ko'ra- bila turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yulga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini yechmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosatsiz deb ataymiz, qalampirnusxa rangli ko'yak, jinsi shim va ayni paytda kirza etik kiyib, salla o'rab olgan odamni ko'rsak, uni didsiz deymiz. Birinchi hodisada biz tabiiy sharoitga moslashmay, o'ziga jabr qilayotgan kishini, ikkinchisida ham gigiyenik, ham axloqiy qonun-qoidalariga amal qilmay tarbiyasizligi tufayli uy egasini ranjitgan odamni, uchinchi hodisada kiyinishdagi uyg'unlikni tushunmagan, go'zallik bilan bachkana yaltiroqlikning farqiga bormagan kimsani ko'ramiz. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada- haqiqatga, keyingisida- ezgulikka, uchinchisida – go'zallikda munosabatini uchratamiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Zero, fahm-aqliy, farosat-axloqiy, did-estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiytug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylididan iboratdir.[32.18b]

Biz yuqorida estetik bahoning estetik did va ideal bilan bog'liqligini aytib o'tgan edik. Xuddi shunday holat estetik did uchun ham xos. U estetik baho bilan shu qadar uzviy bog'liqki, ularni ba'zan ajratib bo'lmay qoladi, guyo estetik baho estetik didning ajralmas qismidey tuyuladi. Lekin, shunday bo'lsa-da, ularni aynanlashtirish yoki bir xodisa sifatida qabul qilish mumkin emas, aks holda bunday qarash ilmiy tahlil tamoyillaridan yiroq “ ko'cha gapi” ga aylanib qoladi. Zero, estetik did muayyan estetik baho yoki baholar yig'indisi emas, balki estetik bahoga layoqatni anglatadigan, subyekt uchun baho me'yorlarini va mezonlarini tayyorlab beruvchi - “ishlab chiqaruvchi” jarayondir. Demak, estetik didsiz estetik bahoning mavjudligi mumkin emas. Ayni paytda shunday holni estetik ideal bilan bog'liqlikda ham

ko'rish mumkin: estetik ideal estetik didning yashash sharti hisoblanadi; did ma'lum ma'noda idealning amaliyotdan namoyon bo'lishidir; estetik idealning o'zgarishi albatta didning o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, did estetik anglash jarayonidagi o'rnini almashtirib bo'lmaydigan muhim halqalaridan biri, estetik anglashning eng muhim unsuridir. Ana shu nuqtayi nazrdan estetik did tarbiyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o'ynaydi, estetik did tarbiyasining asosan uch ildizi mavjud. Ular go'zallik, san'at va badiiy ijod. Albatta, badiiy ijod deganda faqat san'at asarlarining yaratilish jarayonini tushuninsh kerak emas, u ayni paytda dizaynda, modada, atrof – muhitni va mehnatni go'zallashtirishda ham namoyon bo'ladi. To'g'ri, badiiy did estetik didga nisbatan xususiy, tor qamrovli, lekin u shuning barobarida estetik didning asosini tashkil etadi, deyish mumkin.

Estetik did har kimda har xil bo'lishini, unda subyektiv mushohada kuchli ekanini bilasiz Buyuk ingliz faylasufi Devid Yum shundan kelib chiqib, did haqida bahslashmaydilar, ya'ni har kimning didi har xil degan fikrni ilgari surdi. Lekin shunday estetik qadriyatlar borki, ular muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliyl, umuminsoniy, madaniy daraja bilan shartlanadi. Ular idrok etilganida bahslashish mumkin emas. Chunki, bunda bir ikki odamning yoki guruhning didi o'zgacharoq bo'lsa xususiylikka nisbatan maxsus e'tiborini qaratish shart emas: ularning fikri sukut saqlash yo'li bilan inkor etiladi. Chunki, yuz minglab yoki millionlab shaxslar va qator zamonlar tan olgan qadriyatni "bu menga yoqmaydi", deyishga hech kimning ma'naviy haqqi yo'q, agar shunday deydiganlar topilsa, ularning didi, aytilganidek, e'tiborga noloyiq. Shuning uchun ham Kant o'zining o'zining did haqida bahslashish mumkin emas, degan mashhur qoidasini, o'ziga xos antinomiyasini o'rta ga tashlaydi. Kantning haqligini quyidagi misolda yaqqol ko'rish mumkin.

Deylik, Shaxnoza chinnigulni, Dilnoza esa atirgulni yaxshi ko'radi. Bu holatda ularning birortasini tanqid qilib bo'lmaydi, chunki har ikki did o'ziga xos subyektiv kechinmalarga asoslansa – da, ularning umumiyl obyektiv ildizlari bor, ularga gullardagi go'zallikni ikki xil shaklda ko'radilar va bu holat tabiiy. Shu sabali

har ikki did ham hurmatga, e'tiborga loyiq. Bordiyu Eshmat tovus va uning dumini , Toshmat esa echkiemar va uning dumini go'zal desa, Toshmatning fikri yo nom chiqarish uchun qilinayotgan oliftagarchilik yoki estetik didsizlik tarzida qabul qilinadi. Chunki, insoniyat zamonlar moboynida tovusni – jannat qushi , go'zallik ramzi sifatida , echkiemarni esa xunuklik timsoli sifatida qabul qilib keladi: bu o'rinda did borasida bahslashish mumkin emas, zero, tovusning go'zalligi umubashariy "tasdiqdan o'tgan". Shu sababli Toshmatning fikri tanqidiy rad etiladi uning "o'ziga xos", "subyektiv" qarashi hisobga olinmaydi. Shunday qilib, umumbashariy yoki umuminsoniy estetik qadriyat sifatida tan olingan estetik obyektlar haqida bahslashmaydi, ular barcha rasmona did egalari tomonidan yuksak baholanadilar.

Estetik did murakkab hissiy – intelektual hodisa, dedik. Uning bu xususiyati doimo, yuqorida aytganimizdek, estetik ideal bilan bog'liq estetik ideal, bir tomonidan, didni belgilab bersa, ikkinchi tomonidan, estetik did estetik idealning amaldagi ko'rinishidir. Xo'sh estetik idealning o'zi nima? Endi estetik anglashning ana shu unsuriga to'xtalamiz.

Estetik ideal . Ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy – tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna , oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni ideallashtirish bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonni kelajagi buyuk davlat sifatida tasavvur etishimiz uning hozirgi reallikdan baland, namunaviy bo'lismeni anglatadi. Ayni paytda ana shu yuksak namunaviylik har bir o'zini tanigan odam uchun oliy ijtimoiy maqsaddur. Yoki Navoiy shaxsini olib ko'raylik, u komil inson sifatida biz uchun ideal hisoblanadi. Bularni biz ijtimoiy ideallar sirasiga kiritamiz. Shuningdek, har bir inson o'zi intiladigan subyektiv idealda ham mavjud bo'ladi, o'z idealini belgilab olmagan inson shaxs hisoblanmaydi. Zero, har biro dam ko'rib turganidan yorug'roq, musafforoq, yuksakroq narsaga intilishi shart, aks holda uning hayoti ma'nosiz kechadi, uning mavjudligi faqat biologik jonzdolligi bilan chegaralanib qoladi.

Ideal borasida gap ketganda, uning mavjudlik shartlari masalasi muhim. Ijtimoiy ideal ko'proq kelajak bilan, shaxsiy ideal esa asosan o'tmish bilan bog'liq. Masalan, Farobiyning fozil odamlar shahri – kelajakda ma'lum ma'noda realikka aylanishi mumkin bo'lgan ideal jamiyat. Bir necha asr avval yashab o'tgan Jaloliddin Manguberdi esa o'zbek millati uchun, ayniqsa yoshlarimiz uchun ideal qahramon. Lekin har ikki holda ham ideal real hayotimizda mavjud emas – biri kelajakdan, ikkinchisi esa o'tmish qa'ridan turib bizni yuksak axloqiylik, baxt va qahramonlikka chorlaydi. To'g'ri shaxsiy ideal real hayotda ham mavjud bo'lishi mumkin. Biroq bunday ideal ko'pincha ma'naviyatni mafkuraga bo'ysundirish oqibatida vujudga keladi. Shu sababli unga ko'proq vaqtinchalik, o'tkinchilik xususiyati xos: u jamiyatga hodisa sifatidagina ruhiy ta'sir ko'rsatadi va yangi bir mohiyat ochilgan paytda o'z ideallik xususiyatini yo'qotadi: "unday emas". "bunday" bo'lib chiqadi. G'oyaning o'z realligiga mos emasligi ochilib qoladi . "Zero, ideal – deydi, Xegel – o'z realligi bilan aynanlashgan g'oyadir" . Masalan, Lenin, Stalin kabi shaxslar yolg'on tashviqot, siyosiy fribgarliklar, vositasida jamiyatni totalitar mafkuralashtirish natijasida ma'lum muddat ideal sifatida qabul qilindilar . Lekin ularning asl mohiyati, munofiqliklari, qattolliklari, qizil terorga asoslanib siyosat yurgizganliklari fosh etilgach, ular aksil idealga aylandilar.

Idealning murakkab tomoni shundaki, u qadriyat bilan bog'liq. Qadriyat idealning obyektdagi in'ikosi tarzida namoyon bo'ladi. Xegel so'zlari bilan aytganda: "Ideal mavjud bo'lishi uchun tashqi shakl o'z-o'zicha qalbga mos kelishi lozim". Ya'ni ideal jonli subyektning qalbida mos keladigan namunaviy shakldir, unda inson o'z g'oyalarining hissiy-intellektuala ko'rinishi ma'naviy qadriyat sifatida idrok etadi. Bordiyu mazkur g'oyalar o'ta mafkuraviylashtirilsa yuqorida aytganimizdek, ideal o'rnida aksil ideal paydo bo'ladi. Ijtimoiy-axloqiy idealning o'zgaruvchanlik xususiyati ko'pincha ana shu bilan bog'liq. Bu hodisa tarixiy jarayonlar, zamon, jamiyat talablaridan kelib chiqib, qadriyatlarning qayta baholanishi natijasida ro'y beradi. Lekin diniy ideal o'zgarmaslik tabiatga ega. Masalan, musulmonlar uchun Muhammad alayhissalom, nasroniyalar uchun Iso

alayhhissalom, buddaviylik dinidagilar uchun Buddha ideal hisoblanadi va har qanday sharoitda ham ular idealligicha qolaveradi.

Mana, biz ma'lum ma'noda ijtimoiy ideal haqida tushunchaga ega bo'ldik. Endi estetik ideal nimada, uning ahamiyati nima degan savollarga javob topishga harakat qilamiz. Avvalo shuni aytish kerakki, estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik mo'jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi. Inson ana shu idealga mos keladigan go'zallik yoki ulug'vorlikni tan oladi, mos kelmaydiganlarni va aksil estetik hodisa sifatida inkor etadi.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. Shu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari orqali san'atkor voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardagi obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti – harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi. Estetik idealning ana shu shakllanish jarayoni murakkab: uzoq muddatni , hissiy – intelektual qudratni, tanlov imkoniyatni beradigan muayyan shart – sharoitni, erkin jamiyatni taqozo etadi; ana o'shanda shaxs uchun to'g'ri ruhiy yo'llanma vujudga keladi. Qisqa qilib aytganda, estetik idealning shakllanishida go'zallik, ulug'vorlik, hayoliylik, mo'jizaviylik, uyg'unlik singari xususiyatlar asos vazifasini o'taydi. Ayni paytda u fojiaviylik va kulgulilik tushunchalrida ham o'zini namoyon etadi, Xunuklik va tubanlik kabi hodisalarni baholashda ishtirok etadi. [25. 49b]

I bobga xulosa

O'zbekistonda milliy ong, milliy madaniyatimiz, milliy rux tuyg'ulari qaror topib, milliy madaniyatimiz davr talabalari asosida oldinga qarab bormoqda. Bu albatta mustaqillikni sharofatidir. Biz ma'naviy merosimizni o'rganib, Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, «Xalqimiz o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi, milliy g'ururi, izzat obrusi tiklanib, qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan baxramand bo'lmoqdamiz» deb ta`kidlaydilar bu so`zlarining negizida o`z milliy estetik taraqqiyotimiz, ertangi kunimizning estetik qiyofasi bizning boqiy an`analarimizning, qadyatlarimizning asrlar davomida avloddan –avlodga o`tib borishiga bog`liq tarzda talqin qilinadi. [8. 43b]

Estetik madaniyatimizning yuksalishida mutafakkirlarimizning boy ma'naviy meroslarini o'rganishimiz, asarlaridan baxramand bo'lismiz muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Markaziy Osiyo san'atini, estetik qarashlarini Evropa uyg'onish davri mutafakkirlari, san'atkorlari, puxta o'zlashtirganini bilamiz.

Sharq san'atkorlari g'arbliklardan ancha oldin san'atning iloxiy va dunyoviy mazmunini izohlab bergen edilar. Shuning uchun ham biz uchun ularning ta'limoti qimmatli va ardoqlidir. Estetik madaniyat va did bevosa shaxsning individual holatidan kelib chiqqan holda talqin qilinadi. Estetik tarbiya bevosa boshqa tarbiya turlari bilan aloqador hisoblanadi negaki, estetik tarbiyani o`quvchi yoshlarda shakllantirishda aynan ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiya bilan hamohanglikda shakllanib, ravnaq topadi. Negaki o`quvchi tabiat haqidagi bilimlarni bilmay turub u ekologiya haqida ma`lum dunyoqarashga ega bo`lmaydi shuningdek, tabiat go`zallidan baxra ham ololmaydi. Mehnat qilishni bola bilishi uchun uning ruhiyatida mehnat qilish jarayonidagi lazzatlanish va go`zallikni his qilish munosabati shakllanishi lozim. Estetik madaniyatni shakllantirishda musiqaning o'rni muhimligini ham biz yuqorida ta`kidlab o`tdik. Estetik madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga, ayniqsa, san'at (me'morchilik, raqs, musiqa) shaklida juda tez o'tadi. Chunki aynan san'at insonga ko'p asrlik haqiqat jarayonini izlashga dahldorlik imkonini beradi.

II – bob. Ta`lim va tarbiya jarayonida uzlusiz estetik tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari.

2.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchi shaxsini shakllanishida estetik dunyoqarash va madaniyatning o`rni.

Estetika kategoriyalarida insonning nafosatiga munosabati o’z aksini topadi. Kategoriyalar tayyor holda birdaniga paydo bo’lmaydi. Ular bilish taraqqiyotining uzoq tarixiy jarayonida shakllanadi. Estetika fani boy va murakkab kategoriyalar sistemasini ishlab chiqdi. Bular orasidan kishi idrok etadigan ob'ektlarni sifat jixatidan bir-biridan farq qiluvchi, estetik mazmunini aks ettiruvchi tutash va munosabatdagi kategoriyalar gruppasini ajratish mumkin. Demak estetikaning asosiy kategoriyalariga;

- go’zallik
- nafosat
- komediyaviylik tushunchalari kiradi.

Go’zallikning tabiatda namoyon bo’lishi masalasi falsafiy estetik fikrlar tarixida muxim masalalalrdan biri bo’lib, go’zallik aslida hayotda ob’yektiv holda mavjudmi yoki biz uni fantaziyamiz vositasidan hosil qilamiz degan, masalaning hal etilishidir. Go’zallik nafosat olamining mag’zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy moxiyatini tashkil etadi. Go’zallik - bu asosiy estetik qadriyat bo’lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub'ektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy qismlariga ham taalluqlidir. Masalan:

- Estetik his-tuyg’u-eng avvalo go’zallikni his etish jarayonini anglatса;
- Estetik did bo’lsa-ko’p jixatidan shaxs va jamiyat nimani go’zallik sifatida, neni xunuklik idrok etishida namoyon bo’ladi.
- Estetik qarashlar esa go’zallikning tabiatи va moxiyati haqidagi fikrlarini anglatadi.

Kasb – hunar kolleji o`quvchi yoshlarida estetik dunyoqarashni shakllantirishda
estetik idrokning ahamiyati katta

Estetik idrok ham badiiy idrok singari nazariy va amaliy ahamiyatga molik tushunchadir. Negaki, estetik idrokni tadqiq etmay turib, badiiy ijod nazariyasining to’laqonli tarzda anglab yetish hamda san’atning ijtimoiy tabiatini ochib berish mumkin emas. Estetik idrok masalasi to’g’ridan to’g’ri inson estetik tarbiyasiga dahldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat o’rtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli ta’sirga ega. Chunki, estetik idrokning o’ziga xos xususiyati avallo , badiiy ijodning tabiatiga hamda san’atning ijtimoiylik mohiyatiga ta’sir ko’rsatishi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, estetik idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san’at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to’laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bir so’z bilan aytganda, estetik idrok mohiyatan insonni voqelikni badiiy obrazlar orqali o’zlashtirilishi bilan namoyon bo’la boradi.

Estetik idrokning shakllanishi jarayoni tadrijiylik asosida rivojlanib,ma’lum bir kuzatuvlardan so’ng yuzaga keladi. Holbuki, u hech bir davrda o’z-o’zidan tayyor holda shakllanib qolgan emas. Inson san’at asarini estetik idrok etishi bilan bir paytda o’zining ma’naviy ehtiyojini ham qondirib boradi. Ana shu ehtiyoj pirovardida uning turmush tashvishlarini biroz bo’lsa-da yengillashtirishga, hayotning murakkab so’qmoqlaridan matonat bilan o’tib borishiga ko’mak beradi, yangiliklar yaratishga undaydi. Zero, estetik idroki tarbiyalangan inson Navoiyning “Xamsa” sidan bunyodkorlik tuyg’ularini, Qodiriyning “O’tagan kunlar”idan vafodorlikni, Cho’lpon she’riyatidan Vatanga bo’lgan muhabbatni, Abdulla Qahhor hikoyalaridan tubanlik, pastkashlik, tilyog’lamachilikka qarshi nafrat tuyg’ularini, Chustiy she’riyatidan bahoriy kayfiyatni his etib boradi.

Estetik idrok xususiyatlari to’g’risida gapirar ekanimiz, avvalo, badiiy asarni estetik idrok etishdagi bilish jarayonlarining o’ziga xosligiga e’tiborni qaratmog’imiz lozim bo’ladi. Bu esa o’z navbatida badiiy asarni idrok etish bilan ilmiy asarni idrok etish orasidagi farqni belgilab beradi. San’at asarini idrok etishning o’ziga xosligi

shundaki, san'atkor o'z ijodiy faoliyatini amalga oshirish rejasini oldindan beldilab oladi, badiiy to'qimalar yordamida “nomoddiy narsalarni “moddiylashtiradi”, ya'ni kitobxonni kutilmagan hodisalar bilan uchrashadir. Shunga ko'ra, san'at asarlarining vazifasi mohiyatan insonning estetik ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Ana shu jihat bilan san'at asarini hissiy-aqliy idrok etish, ilmiy-nazariy asarni idrok qilishdan farq qiladi. Zero, ilmiy asarni tushunish uchun o'quvchi avvalo, mazkur sohada doir bilimlardan xabardor bo'lumog'i lozim. Yo'qsa, bu asar uning uchun qiziqarsiz hamda tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Badiiy asarning mohiyatining bilish yoki uning mazmunini o'zlashtirish uchun mazkur jarayonni maxsus o'rghanishga ehtiyoj sezilmaydi. Negaki, insonning estetik idrok tabiatan ijodiy jarayonga yaqin bo'lib, bu holat inson kamolotining barcha pog'onalarida ishtirok qiladi. [33. 2b]

Kasb-hunar kolleji o`quvchilarida estetik tarbiyasini yani ularning dunyoqarashini shakllantirishda G`arb estetik talimotlarning o`rni juda muhim sanaladi. Masalan aytishimiz mumkin Hindiston xalq estetikasi xususan “Mahobharot”, “Ramayana”, “Xorivanshu” “Iliada” va “Odisseya” kabi asarlarda insonning estetik dunyoqarashiga ta`sir ko`rsatadigan boy tarixiy obraz va hodisalarni ko`rish mumkin. Bundan tashqari qadimgi

Yunonistondagi estetik ta`limotlarni ham aytish mumkin. Bu ta`limotlarning negizida faylasuf Arastu, Demokrit, Evklip, Gerodod kabi buyuk olimlarning go`zallik, oliyjanoblik, farosatlilik, bunyodkorlik haqidagi estetik qarashlarini bayon qilish mumkin. Hususan qadimgi Yunoniston tarixchisi Gerodot estetik qarashlarini o'rjanib, ularni umumlashtirib, boyitib, qadimgi sharq mamlakatlari erishgan yutuqlar zaminida Ovrupa mamlakatlari badiiy madaniyati tarkib topganligini aytadi.

Qadimgi grek shoirasi Sanfo (er.avvalgi VII - VI asr) o'z she'rlari bilan go`zallik va yoshli kuychisi sifatida nom qozongan. U yoshlarni musiqa, ashula, raqs, she'r yozish san'atiga o'rgatgan . Sanfo tabiat, inson go`zalligini juda nozik his etadi, chuqur mushoxada qiladi, haroratli , xazin, mayin misralar bitadi. Shoiraning o'zi

shunday yozadi: «Latofatni sevaman, yoshlikni sevaman, shodlikni sevaman, quyoshni sevaman, qismatim quyosh nuriga va go'zallikka shaydo bo'lmoqlikdir».

Qadimgi Yunon olimi Demokrit (er.AV.460-370 y) birinchilardan bo'lib san'atning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilgan. U poeziya, san'atga oid asarlar yozgan. San'at tabiatga taqlid shakllangan degan fikrni o'rtaga tashladi. Qadimgi greklar tomonidan ishlatilgan «Kosmos» so'zi zamirida Koinot va go'zallik tushunilgan. «Garmoniya» esa inson axloqini va san'atga munosabatini ifodalagan. Qadimgi yunon shoiri Gomerning (eramizgacha VII - VI asrlar) «Iliada» va «Odessiya» dostonlarida , Aristofan (eramizgacha 446 - 355), Arxilox Gersiod poemalarida. Sanfo (497 - 406), Esxil (525 - 456) tragediyalarida inson go'zallik, hayot nafosati, ulug'vorlik, olıyanoblik ulug'langan.

San'at go'zallikka taqlid qiladi deydi Arastu. Arastu fikricha, san'at kishilarda axloqiy poklik shakllantiradi, olıyanoblik tuyg'usini chuqurlashtiradi, yaxshilik sari undaydi. U san'atni ijtimoiy tarbiya vositasi deb baxolaydi. Uningcha San'atning vazifasi - go'zallikka taqlid qilish ekani har bir insonda go'zallik shakllanishi uchun ta'sir o'tkazishga harakat qiladi, deb tushuntiradi. Go'zallikning eng yuqori ifodasini jonli narsalar va ayniqsa inson tashkil etadi. Inson o'zining garmonik va proporsional holda tana qismlarining tuzilishi tufayli go'zallikni ifodalovchi va shu bilan birga san'atning asosiy predmeti sifatida ishtirot etadi. Go'zallik uning fikricha ob'ektiv va mutlaq narsadir.

Bu jixatdan Arastu Geraklit va Demoikratga yaqin turadi. Chunki ular uchun go'zallik g'oyalarda emas, baki muxim aloqa va o'ziga xosligidadir. Arastu asarlarida san'atning tarbiyaviy roli katta o'rın egallaydi. U kishilarning ma'naviy hayotlari bilan bog'liq va fazilatlarni takomillashtirish masalalariga bo'ysunadi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel go'zallikni real voqelik in'ikosi sifatida talqin etadi. Aristotel go'zallikni moddiy olamni. Arastu fikricha go'zallik zaminida inson va narsaning bir-biriga muvofiqligi, loyiqligi, mosligj aqidasi yotadi. Uningcha «Haddan tashqari-katta», «Haddan tashqari kichik» narsalarni mezon o'lchovi

neligini bilish kerak. Go'zallik muayyan mezon o'lchov ko'rinishidagina namoyon bo'ladi. Barcha narsaning o'lchovi insondir. Go'zallik sifati nafaqat tabiat hodisalari, balkiadolat, mardlik, saxovat donishmandlik kabi yaxshi insoniy xislat - fazilatlar ham kiradi. Uyg'onish va ma'rifikatlik davri estetik risolalarda go'zallikning tabiiy qonunlari ishlab chiqish, ularni san'at soxasiga ham tadbiq etishga urinishlar sevilib turadi.

Aflatunning estetik qarashlari «g'oyalari» nazariyasi bilan bog'liqdir. Uning fikricha, hissiy jismlar o'zgaruvchan, paydo bo'ladi va yemiriladi. Shuning uchun ular haqiqiy borliq emas, «turlar» yoki «g'oyalari»dir. Aflatunning «g'oyalari» - bu umumiy tushuncha bo'lib, mustaqil moxiyatga egadir. Aflatun o'zining «Davlat» asarida ideal davlatda san'atga o'rinn yo'q deydi. Biroq xudolarga taronalar yaratish va ijro etish mumkin deydi.

Chunki bu taronalar jasurlik va fuqarolik hislarini uyg'otadi, deydi faylasuf. Faylasuf ikki iloxiy san'at haqida gapiradi. Tartibli san'at, - Birinchisi kishilarni yaxshi tartibga solsa, ikkinchisi ularni yomon holatga keltiradi, deydi. Ideal davlatda tartibli san'atga katta o'rinn beriladi. San'at go'zalikka erishishi uchun real hayotdan yuz o'girib, iloxiy olamga munosabatda bo'lishi kerak degan fikrni o'rta ga tashladi. Ya'ni, barcha narsalarning moxiyati g'oya, ruh, chinakkam go'zallik u dunyodadir deb tushuntirdi u.

O'rta asrlarda ayniqsa uyg'onish (Renessans) davrida san'atda insonni ulug'lash, uning buyuk qudrati, aql kuchini sharaflash ustunlik qila boshladi. Shu davrda atoqli shoir, yozuvchi, rassom va olimlar yetib chiqdikim, ularning bebaxo, hayotbaxsh, badiiy yuksak asarlari estetika rivojida katta bosqich hisoblanadi. Shuningdek Aflatun bu masalani ilk bor «Nima go'zal» degan savolga ajratish bilan tarixda go'zallik, to'g'risidagi falsafiy ta'limotining asoschisi bo'lib kirgandi. Aflatun ta'limotida go'zallik jonli, hissiyotli, o'zgaruvchan narsalar olamidan ajralib qolgan abadiy rux – g'oya sifatida ta'riflanadi. Uningcha: go'zallik vujudga kelmaydi va barbod bo'lmaydi, balki u vaqt va makon tashqarisida amal qiladi. Go'zallik

tuyg'udan yuqoriroq tabiatga molik bo'lgani uchun uni his-tuyg'u vositasida emas, balki aq1 vositasida anglash mumkin bo'ladi. Gegel - mutloq rux – g'oya go'zallikning namoyon bo'lishidir. Uningcha his-tuyg'u qobig'iga ega bo'lgan rux-g'oya, ya'ni porlab turgan narsagina go'zaldir.

David Yum - «Go'zallik narsalar sifatini bildirmaydi, balki narsalarni mushoxada qilayotgan inson ruxi darajasida amal qiladi» deb uqtiradi. Bunda har bir odam ruxi o'zi belgilangan, tanigan, anglagan go'zallikni ko'radi. Aflatun, Gegel, Yum ta'limotlarida go'zallikning ma'naviy mazmundorligi, go'zallikka inson munosati aks ettirilgan.

Kasb –hunar kolleji o`quvchi yoshlarning estetik tarbiyasini oshirishda Sharq xalqining boy ma`naviy qadryat va madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq ma'naviy madaniyatining negizi shubhasiz Islom dinidir. Islom san'ati o'z moxiyatiga ko'ra iloxiy tafakkurga yo'g'rildir.

Bu holat sheriyatda, musiqada, tasviriy san'atda, me'morchilikda erkin ko'zga tashlanadi. Masjid - Allox bilan kunma-kun muloqot qiladigan, yuzma-yo'z turib gaplashadigan, Allox so'zlarini bandalarga muntazam eslatib turiladigan muqaddas dargoh. Islomda masjid - Alloxning uyidir. Payg'ambarimiz Muhammad bonyod etgan ilk va keyin qurilgan masjidlarning me'moriy shakl - shamoyili ko'hna exromlarga payg'ambarlar Ibroxim va Musoga vaxiy qilingan. Axd asosida qonunlarga mutanosibdir. Masjid iloxiy - ruxiy exrom markazi bo'lgan, Ibroxim alayxissalom bonyod etgan ka'baning timsoli ko'rinishlaridir. Allox go'zallikni singdiruvchi islam mazmun - moxiyatini, musulmon kishi hayotini, turmush tarzini, estetik qadriyatlarni erkin ifodalovchi tamoyillari. Naqshning chodraga o'ralgan ayolga o'xshatilishi shunda.[19. 65b]

Naqsh haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas go'zallikni moxiyatini anglash, shu go'zallikni dildan his qilish, chodra ortidagi vaziyatga o'zini tayyorlash va unga kirib borish timsolidir. Naqshdagi gullar: gulsafsar-osoyishtalik, umri boqiylik; tulkisimon gul poyasi - boylik va farovonlik; novda va yaproqlar -

navqironlik, yashirin timsollar bo'lsa, oq rang shodlik, yoshlik timsollaridir. Naqsh xotirjamlik, ruxiy osoyishtalik, umri uzoqlik - cheksizlikni ramziy ifodalovchi xilqatdir. Me'moriy binolarning naqshlari - oliv barkamollik, komillik, Alloh xuzuriga yo'l olish ramzları hamdir. Islom estetkasi - muqaddas so'zda ham me'morchilikda ham, musikada ham, soyasiz tasvirda ham ushbu tamoyilarga suyanadi.

- Oqilona negiz-oqillik ifodachisi bo'lgan so'zga sig'inish;
- Tartibga solish tarzidagi uyg'unlik tamoyili;
- Bosqichma-bosqich tamoyili;
- Tasniflash tamoyili;
- Qonun - qoidalar tamoyillaridir.

Islomda so'zlar lug'aviy ma'nodagina muqaddas rivoyatlarga emas, balki hissiyotlar olamiga etaklaydi. So'z - Alloxning bashariyatga eng oliv tuhfasi. So'z-me'morlik, musiqa, naqsh, hunarlar bilan uyg'undir. «Allox go'zal va u go'zallikni sevadi», deyiladi. Qur'oni Karimda, demak Islomning estetik nuqtai nazari go'zallikka oshno bo'lmoqdir. Allox go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod etgan olam ham, o'z bandalariga hadya etgan noz - ne'matlar ham go'zaldir. Shunga muvofiq Alloxning ismi sifatlarini vasf etuvchi so'zlarimiz, ham musiqamiz, ham uning qudratini namoyon etuvchi binolarimiz - me'morlik obidalarimiz ham qo'yingki, Allox irodasi, nomi sifati bilan yaratilgan bu olamdag'i narsalarning hammasi go'zal bo'lishi kerak. Prezidentimiz I.Karimov, «...ma'naviy meros bu Ollox- taolloning millatimizga ato etgan buyuk ne'mati sharofatidir» deb ta'kidlagan edilar. [9. 45b]

Shuning uchun ham biz Markaziy Osiyo, Sharq mamlakatlari xalqlarining estetik ta'llimotlarini bilishimiz va ularning qoldirgan merosini o'rganishimiz lozimdir. Markaziy Osiyorining ensiklopedist olimlari M.Qoshgariy, Abu Nasr Farobi (870-950.) A.R.Beruniy (973-1048), A.Firdavsiy (934 - 1029), A Navoiy (1441-

1501), A.Jomiy (1414-1492) A.Rudakiy , Ibn Sino va boshqalar o'z asrlarida o'z davrlaridagi badiiy praktikani falsafiy jihatdan tushunishga uringan edilar. Ular badiiy ijodni real hayotga asoslangan faoliyat deb tushundilar, bu faoliyat esa kishilar ongiga ta'sir etuvchi, hamda turmush uchun foydali va zarur qulayliklar yaratish bilan bog'liq bo'lishi lozim edi. Ular iloxiy go'zallikni bilib bo'lmaydi, degan ta'limotdan kelib chiqib, demak, yerdagi go'zallikni o'rganish zarur ekan, degan xulosaga keldilar. Ular go'zallikning inson qalbiga ta'sir qilish sabablarini qidirdilar va bunday ta'sirning sababi inson ruhi bilan tabiat go'zalligi o'rtaсидаги уйг'унликдир, degan xulosaga keldilar. Ular chin inson mardona mexnat qilish bilan birga chuqur bilim olishga intilishi, odamzodga xos eng yaxshi fazilatlarni o'ziga gavdalantirishi, aytaylik, Navoiyning Farxoddek bo'lishi lozim, deb hisobladilar. Endi bu ulug' mutaffakirlar ijodiga to'xtalib o'tamiz.

XI asrda yashagan buyuk olim Maxmud Qoshgariyning «Devonu lug'atit turk» (turkiy so'zlar devoni) asari O'rta Osiyo xalqlarining zakovati, donoligi, go'zal hayotdan zavqlana olishini sodda, ta'sirchan she'riy misralarda badiiy ifodalangan. Asarda keltirilgan she'riy parchalar, madhiyalar, marsiya va dostonlarda qabilaviy hayot, ov ovlash, kundalik ovlash, kundalik turmush, mehnat, hayot zavqi o'z ifodasini topgan. Qolaversa, o'tmisht avlodlarimizning go'zallik, yaxshilik, mardlik, qahramonlik, do'stlikni sharaflashlari, dushmanqa yovuzlikka nisbatan qaxr va g'azablari, nafrat bilan yaqindan tanishar ekanmiz, dilimizda ajib his tuyg'ular tug'yon uradi. Bu asarning himmati shundaki, odamlarga yaxshilik qilish, oliyjanob xulq va fazilatlarni egallash, bechora, g'arib mehmonga shafqat, kuni-qo'shnilariga muruvvat, do'stlikka riosa qilish, omonatni o'z vaqtida qaytarish, kengash bilan ish tutish, ilm-xikmat o'rganish, donishmandlarni hurmat qilish, shirin so'z va muomalada yoqimli bo'lishga da'vat «Devonu lug'atit turk» asarlarida yaqqol ko'zga tashlanad.

Sharq falsafiy fikrlarining yirik namoyondalaridan biridir Farobi. Uning asarlari: «Fozil shahar axolisining qarashlari» hikmat ma'nolari («Fusus al hakam»). «Ixso al ulum» (ijtimoiy hodisalarga bag'ishlangan) «Baxt saodatga erishuv haqida»

«Kitob al musiqiy» (musiqa haqida so'z) «Kalom al musiqiy» (musiqa haqida so'z) «Kitob f-n ixso - il » (ritmlar turkumlari haqida kitob) larini yozgan. U asrlarida zulm va istibdodga, avlod, jaxolat va nodonlikka qarshi chiqdi, odam shaxsining eng yaxshi oljanob xususiyatlari haqida kuyladi, kishilar hayotidaadolat o'rnatilishini orzu qildi. Farobiy o'zining asarlarida ideal shaharlaridagi adolatli hayot haqidagi xayoliy tasavvurni boyitdi. Markaziy Osiyo feodalizmi sharoitida birinchi bo'lib tasvirlab bergan edi. Farobiy muzika, poeziyani faqat mutaxassis nuqtai nazardan emas, balki noziktab', san'atning ulkan jozibador kuchini his eta oluvchi kishi sifatida ham o'rgandi. «Bilim kishiga baxt va shodlik keltiradi», deydi mutaffakir, inson bilim orqali o'zida go'zallik va mukammallikni kashf etadi. Farobiyning fikricha, muzikaning kishilar tuyg'usiga ta'siri, ayniqsa buyukdir. «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, bu o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga soladi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'ladi gana odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi» deydi. Olim hatto musiqaning shifobaxsh kuchiga ham ishongan: «Bu ilm kishi salomatligi uchun ham foydalidir» deydi. U yana aytadiki, haqiqiy bilim go'zaldir, deydi. Farobiy bo'lajakka va albatta keljak go'zal jamiyat haqida o'laydi. Bu jamiyatda kishilar chinakam baxtli, adolatli va jasur bo'ladi lar. Uning g'oyalari tabiiyki, ruhoniylar tomonidan keskin hujumga uchradi. X asrda sharqda «Ixfon as safo» nomli yashirin tashikilot ish ko'rgan. Bu jamiyatning a'zolari falsafiy va ilmiy bilimlarni tarqatish bilan shug'ullanganlar va shu orqali o'zlari yashagan jamiyatning illatlariga qarshi kurashganlar. Farobiy «Baxt - saodatga erishuv» haqidagi risolasida, inson go'zalligini samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bo'lishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo'lgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Farobiy insonning o'z - o'zini tarbiyalashda, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san'atining o'rnini ta'kidlaydi. San'at uning fikricha, insonda go'zal estetik fazilatni tarbiyalashda qodir kuchga egadir.

Abu Rayxon Beruniy o’z davrining qomusiy olimlaridan biri edi. U har qanday qiyinchilikka qaramay, insonning buyukligiga, uning aqliga va ulug’vorligiga astoyidil ishondi. Juda ko’p asarlar bitdi, uning «O’tmish xalqlardan qolgan yodgoliklar», «Hindiston». «Mineralogiya» kabi asarlari komil inson aql zakovati, ma’rifatining erkin ko’zgusidir. Abu Rayxon Beruniy o’zining estetik qarashlarida - voqeа hodisalarning o’zaro bog’liqligi va aloqadorlik manbai, mukammallik va uyg’unlikdir, deb ko’rsatdi. Uningcha hech nimaga muxtoj bo’lmagan yetuk, mukammal deyish mumkin. Beruniy «Hindiston» degan asarida eng ezgu insoniy fazilatlarni aytib o’tadi va quyidagi hikoyani misol keltiradi. Al - Beruniyning aytishicha, Basrada bir odam bo’lgan ekan. U har kuni o’zining eng yaxshi kiyimlarini kiyib, eng yaxshi ulovga minib chiqar va har doim kishilarning mushkulini oson qilib berar ekan. Undan buning boisi so’raganlarida, u aytgan: «Hayotimizning eng totli damlarida men eng go’zal kuychi, qo’shiqchi ayollarning ohanglarini tinglab turib jomlardan pok sharob sipqorganman. Ularning nafis ovozlari, nodir nag’malari daraxtlar shoxidagi qushlarning sayrashiga monand edi. Ammo o’shanda olgan lazzatlarim, hozir mendan yaxshilik ko’rgan odamlardan qardoshlarim huzurida eshitayotgan minnatdorchilik, shodlik oldida hech narsa emas». Yaratgan asarlarida u har bir inson ezgulikka, go’zallikka intilishi va shu yo’lda harakat qilmogi lozimligini uqtiradi.

Buyuk zotlardan yana biri A.Rudakiydir bizga ma'lumki fors - tojik adabiyotining ajoyib gullari butun jahonn maftun etgan. Chunki uning chuqur ildizlari xalq og’zaki ijodidan foydalanib, xalq g’oyalari bilan sug’orilganligidadir. A.Rudakiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning g’azallari, ruboyilaridan dilbar kuyni , pok insoniy sevgini, inson aql-idroki go’zalligini ulug’laganligini ko’ramiz. U ko’zi ojizligiga qaramay, shoir, sozanda va bastakor bo’lgan. A.Rudakiy asarlarida inson aql - zakovatiga ishonch kuchliligi, ana - shu aql zakovatni boyitishga chaqiradi. U xayotni eng yuksak baxt, estetik qimmati jihatidan eng katta boylik deb hisoblaydi.

Mutafakkirlarning aytishiga qaraganda go’zallik haqida fikr yuritish va uni bayon qilish nihoyatda murakkab va mashaqqatli jarayon. Go’zal, ijobiy his-tuyg’u

uyg'otadigan narsani ko'rsatish ancha oson. Lekin o'sha narsa nima uchun go'zal ekanini tushuntirish ancha qiyin. Ilmiy tushunchalar tizimida ham go'zallik muammosini tushuntirib berish ancha qiyin. Lekin shu holat go'zallik muammosiga fidoiy yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Abu Ali Ibn Sino fikricha inson besh sezgi orqali hayot lazzatlarini sezadi, biladi, undan lazzatlanadi. U go'zal jamiyatni, kishilarni erkin baxtli do'st bo'lib yashashligini, inson hayotidagi go'zallik g'oyalarini tantana qilishni orzu qilgan mutafakkirdir. Lekin haqiqiy go'zal hayot ko'rishning to'g'ri yo'lini ko'rsatib berolmadi.

Alisher Navoiy dunyoda insondan ko'ra azizroq, bebaxo, go'zal mavjudot yo'q. Shu sababli hayotdagi barcha jonzot narsalar go'zalligi, estetik zavq qo'shiq va kuyning kishi kayfiyatiga ta'sir masalalari M: uning «Hamsa» sida o'z aksini topgan. Navoiy go'zallik deganda, inson go'zalligini tushunadi va go'zallik kishining Mexnatsevarligida, Axloqiyligida, Donishmandligidadir deydi,

Adl ila olam yuzin obod qil,

XULQ ila olam elin shod qil, deya ta'kidlaydi.

Navoiy inson go'zalligini gumanizm - insonparvarlik bilan uzviy bog'liq ravishda talqin etadi. Dunyo go'zal, hayot esa bundan ham go'zaldir deydi va

Xushdurur bog'i koinot guli,

Barchadir yaxshiroq hayot guli.

Tabiat-go'zallik haqidagi tasavvurlarimizning birinchi manbai. Bizning tuyg'ularimiz mehnatda va dam olishda tabiat bilan munosabatimizda shakllanadi. Tabiat go'zallikka boy, faaqt uni inson ishtirok etgan eng kichik hodisasidan boshlab, ulkan hodisagacha ko'ra olish, his qilish va tushunish kerak. Masalan, qor uchquning mayda zarrachalaridagi hayron qolarli darajadagi simmetrik qirralaridagi barcha qismlar mutanosibligi va yaxlitligi bizni hayratga soladi.

Qor uchqunlari va shabnam tomchisi quyoshda tovlanib, yarqiraydiki, ularning uyg'unlashuvi kamalak yog'dusi hodisasini oltin, kumush yoki qimmatbaho tosh o'z o'zicha yarqiraydi, ular go'yo ichidan tabiiy nur bo'lib yonadi. Tabiat qonunlarini idrok etib inson uni go'zalligini kuchliroq his etadi. Tabiatga ichki bir mehr bilan yongan g'amxo'rlik hissi insonga estetik zeb kasb etadi. Insonda kuzatuvchilik, sezgirlik, nazokatlikni tabiat tarbiyalaydi. Insondagi estetik madaniyatini ekologik tarbiya negizida tushuntiradigan bo`lsak, gulning nafisligini, go`zalligini anglash uchun eng avvollo tabiatni sevishimiz, tabiatni asrashimiz, estetik masuliyatga rioya qilgan holda ekologik madaniyatga bo'y sunishimiz darkor. [16,5b]

O`z navbatida estetik ong va madaniyatni ekologiya misolida ko`radigan bo`lsak, bunda

Ekologik tarbiya estetik madaniyatni qamrab olgan holda bugungi kun - dolzarb masalasi bo`lganligi sababli biz bu ekologiyaning foydasini, uni asrab-avaylashni tevarak atrofimizdagi insonlarga ham tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishlarinitakidflashimiz, bir tanu bir jon bo`lib, tabiatni asrashimiz, go`zalligini avaylashimiz, darkor. Qachonki tabiatga madaniyatli munosabatda bo`lgan insongina tabiat ne`matlaridan to`gri foydalana olishi mumkin. Ekologiya bu atrof muhit demakdir. Ekologik madaniyat o`z ichiga inson yashayotgan hayot muhitini uni tarixiy nuqtai nazardan saqlab qolish muammolari, shuningdek, insonni mehnat faoliyati natijasida tabiiy muhitga ko`rsatayotgan salbiy ta'sirlari uning oldini olish masalalarini, mavjud go`zallikni qadriga yetish kabilarni qamrab oladi. Ekologik madaniyatli inson tabiat ne`matlaridan unumli foydalangan tabiatning go`zalligiga o`z hissasini qo'shib, etetik jihatdan masuliyatli bo`ladi, ekologik madaniyat estetik masuliyatni qamrab olgan holda quyidagilarga rioya qilib, hayot tarzini yaxshi tashkil qiladi:

- Dunyoni hozirgi ekologik holat asosida unga munosabat bildirishi va go`zallikni anglab, tabiatga estetik baho berishi.
- Tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkibini birlikda ekanligini fikrlay olishi va estetid did orqali munosabat bildirishi.

- Atrof-muhitga munosabat va o`zini anglab yetish. Tabiatni tarkibiy qismi ekanligini tushunishi, estetik madaniyatni shakllantirish.
- Tabiatga nisbatan qadriyatlarni hurmat qilishi, go`zallikni, ulug`vorlikni anglay olish.
- Tirik organizmlar tizimi bir butunligini va o`zaro ekologik bog`lanishlarda ekanligini bilishi,
- Tabiat va jamiyatdagi o`zaro birlik va qarama-qarshiliklarni anglashi.
- Ekologik tanglik madaniyatning estetik tangligi ekanligini anglashi.
- Ekologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini anglashi.
- O`z faoliyatida ekologik va estetik normalarni- to`g`ri keladigan usullarini anglashi.
- O`zi va boshqalar sog`ligi uchun, atrof-muhit holatiga nisbatan ekologik javobgarlikni tarbiyalashi, estetik barqarorlikni ta`minlash.
- Insoniyatning barqaror rivojlanish konsepsiyasini, tabiat bilan jamiyatning koevolyutsiyasi ekanligini tushunib yetishi va tabiat ne`matlarini asrash estetik madaniyatga rioya qilish.
- Tabiat bilan jamiyatni uyg`unlashtirish, ijtimoiy zaruriy muammo ekanligini tushunishi, estetik masuliyatni yuzaga chiqarish

Estetik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- Estetik tarbiya va uning shaxs ma`naviy dunyosiga ta`siri;
- Go`zallik va uning ahamiyatini aniqlash;
- Estetik tarbiyani rivojlantirishda ta`lim muassasasi va oilani hamkorligi;
- -Yoshlarning estetik tarbiyalashda milliy an`ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish;

2.2 Kasb – hunar kolleji o`quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda oilaning roli.

Barcha tarbiya o`chog`i bilamizki oilaga borib taqaladi. Odam doimo go`zallik uchun kurashishi va kelajak naslini ham o`sha estetik tushunchalar negizida tarbiyalamog`i darkor. Chunki ota-onas farzandiga haqiqiy husnni, insoniy fazilatlarni aynan estetik tarbiyani shakllantirish davomida bolada tarbiyalaydi. Oilada bolani estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun eng avvolo ota-onaning o`zi estetik masuliyatli va qatiyatli bo`lmog`i lozim.

Chexov “Insonda hamma narsa go`zal bo`lmog`i lozim: yuzi ham, kiymi ham, qalbi ham, fikri ham” bu fikrining negizida bolaning qalbi go`zalligi muhim hisoblanib, bunda ota-onas yetakchi vazifani bajarishi lozim. Ona qiz bolada go`zallikni tarbiyalashda, go`zallik tushunchasini asosini qizlar uchun hayo-ibo, nafosatlilik, dilkashlik, mehnatsevarlik tashkil qilishini uqtirishi va bu go`zal fazilatlar qiz bolaning baxtli hayoti uchun zamin hozirlashi, baxtli bo`lishi uchun asos bo`lishini uqtirmog`i lozim.

Ota o`g`li uchun, ona qizi uchun zaruriy estetik tarbiyani tashkil qilmog`i lozim. Bolaning kiyinishi so`zlashish odobida ham estetik madaniyat, estetik did, estetik masuliyat yaqqol sezilishi darkor. Buning uchun esa ota-onada o`sha fazilatlar mavjud bo`lmog`i lozim.

Ma'lumki, go`zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga “Go`zallik nima?” degan savol qo`yiladi, biroq ularning aksariyatida “Nima go`zal?” degan savolga savol bilan berilgan javobni kuzatamiz. Darvoqe, odatda, go`zallik ikki omil asosida yuzaga keladi.

Bular:

- inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go`zallik;
- inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog`liq bo`limgan holda yuzaga keladigan go`zallik.

Nafosat falsafasi go`zallikni bilishning mahsuli deb biladi. Chunkivoqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go`zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylig va realligi

bilan belgilanadi. Bundan tashqari, inson go'zallik haqidagi dastlabki ma'lumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo'lmish ko'rish sezgisi orqali o'zlashtiradi, undan so'ng eshitish, ta'm bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go'zallik anglanadi hamda his etiladi.[32. 208b]

Go'zallikni his etish ko'nikmasi shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy muhim omili sanaladi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiyligi hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir.

Bolalar juda yoshligidanoq sohta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim.

Sababi farzand voyaga yetib ijtimoiy jarayonlar bilan bo'ladigan munosabatlarida go'zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo'lishini tushunishi zarur. Bu holat ayniqsa, go'zallikning moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rnida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, go'zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan mushohada qilingandagina uning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go'zallikning ma'naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o'rniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy-ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabat bildirildi, xalqona, ilg'or an'analar shakllanadi, milliy iftixorni yuksaltirishga keng jamoatchilik fikri jalb qilindi. Ana shularning natijasi o'laroq, mamlakatimizda amalga oshirilgan ezgu ishlarning ko'lami kengaydi. Endilikda bunyodkorlik g'oyasi go'zallik tushunchasi bilan hamohang olib borilganligini, bilish, anglash va tasavvur qilish qiyin emas. Buni o'zbek san'atida amalga oshirilgan ishlar orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, san'at ta'sir doirasi juda keng bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, san'at asari insonni faqat voqelikdagi go'zalliklar bilan cheklanmaslikka, ayni paytda mavjud go'zalliklarni ongli tarzda mushohada qilishga, baholashga undaydi. Masalan rassomlik san'ati go'zallikni bizga shu tariqa namoyon etadi. Chunki, go'zallik o'zini harakatsiz ham namoyon etishini aynan tasviriy san'at namunalarida ko'ramiz. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham, ma'lum ma'noda shissiyotlar bilan bog`liq. Masalan, oddiy xarsang tosh kishida alohida bir shissiy taassurot uyg`otmaydi. Lekin toshga shaykaltarosh qo'l urganidan so'ng, undan hayot nafasi, insoniy shissiyotlar ufurib turadi.

Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lashzalik insoniy tuyg`ularning jamlanganidadir; boshqacharoq qilib ayt-ganda, ijodkor toshga o'zi tomoshabinga o'tkazishni maqsad qilib qeygan shissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san`at asariga aylantiradi. San`atdagi go'zallik esa hayotdagi go'zallik in`ikosi bo'lib, uning bitmas-tuganmas manbai-voqelikdir.

Go'zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytaganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go'zallikni hamma yerda ko'ra bilish qobiliyatiga egadir.

Zero bolaning estetik tarbiyasi jarayonida asosan uning tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilar, kamalak jiiosi, shuningdek, ochiq, hushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofikdir.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrarda bo'lish tufayli shakllanadi.

Tarbiya jarayoniga mas’ul insonlar ya’ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o’yinchoq o’ynashlarida befarq, loqayd bo’lmasliklari lozim va bu borada asosiy tavsiyachi vazifasiga fidoiylik bilan yondashuvi davr talabi sanaladi. [32. 45b]

Estetik tarbiyani farzand tug`ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, ahloqimizni go`zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlanmoq demakdir. Estetik tarbiyani kim va qanday olib boradi? - degan savol paydo bo`ladi.

Birinchi - tarbiya ota-onasi zimmasidadir.

Ikkinci - bog`cha, maktab, oliy va o`rta maxsus kasb- hunar kollejlari hamda oliy o`quv yurtlari va mahallalarda amalga oshadi.

O`quvchi tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o`rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e’tiborga molikdir.

Estetik tarbiya ham tarbiyaning asosiy qismi bo`lib, o`quvchining ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta’sir qiladi va ota-onalarni ularni murg`aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Estetik ta’lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog`liq bir butun jarayondir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo`lib yetishishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan tarbiya o’chog’i ekanini tan olishimiz darkor.” - deb ta`kidlagan so`zlari negizida insonning ekologik madaniyat va tasavvurini boyitishda oilaning o`rni ahamiyatini ko`rsatganlar. [4. 91b]

Oila insonning ilk o`quvchiligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog’lom e’tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir. Shu muqaddas dargohda ma’naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog’lom e’tiqodli, yangicha fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O’zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Zero, yoshlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an'analar, noyob rasm-rusmlarga oid e'tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta'sirchan vositalardandir. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Estetik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir.

Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Chunki, har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yaxlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar borki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi.

Shu ma'noda shaxsdagi estetik tarbiya sifatlarini, sog'lom dunyoqarashlarni, teran fikrlashni, go`zallikni anglashni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omil hamda shart-sharoit, deb e'tirof etish mumkindirki, uning mohiyatini ilk o'quvchilikdan oila muhitida, undagi qadriyatlar doirasida, ota va onaning obro'si, bilimdonligi, o'rnak bo'luvchi shaxs sifatidagi ta'sirida ular ongiga singdirish psixologik ahamiyatga ega.

Chunki oila - asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Umuman tarbiya jarayonining psixologik mohiyati to'g'risida professor V. Karimova shunday yozadi: «Tarbiya» tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu - insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri, xolis va ob'ektiv bo'lishiga olib keluvchi murakkab jarayondir». [28.53b]

Estetik tarbiya-insonning atrof-muhitga nisbatan go`zallik tuyg'ular munosabatida tarbiyalashdir. Ajdodlarimiz o'quvchi tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarini vujudga keltirganlar. O'quvchilar go'daklik chog'laridanoq ahloqiy va estetik tarbiyasini oilada

boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ulug`vorlik, go`zallik xissi sabot bilan singdirilgan.

Oilada bolalar estetik madaniyatining shakllanishida oila a`zolari ishtirokida xalq bayramlariga tayyorgarlik ko`rish, ularni o`tkazish bilan bog`liq bo`lgan tadbirlar ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan “Navro`z” “Mustaqillik kuni” kabi umumxalq bayramlariga tayyorgarlik jarayonida o`tkaziladigan tadbirlar majmuiga kiruvchi obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish kabi insonda go`zal tuyg`ularni yuzaga keltiradigan ishlar ko`lamida bolalar oila a`zolari bilan birgalikda muntazam ishtirok etishi lozim. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllanishida televideniya orqali ko`rsatilayotgan tasvirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Go`zallikni, insoniy fazilatlarni oilada shakllanishi barchamizga ma`lum. Ma'lumki, go`zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar dastlab oilada vujudga keladi. Bola tarbiya markaziga “Go`zallik nima?” degan savol qo`yiladi, biroq ularning aksariyatida “Nima go`zal?” degan savolga savol bilan berilgan javobni kuzatamiz. Darvoqe, odatda, go`zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular:

- inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go`zallik;
- inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog`liq bo`lmagan holda yuzaga keladigan go`zallik.

Nafosat falsafasi go`zallikni bilishning mahsuli deb biladi. Chunki voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go`zalligi uning ishonchhlilik, haqqoniylilik va realligi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, inson go`zallik haqidagi dastlabki ma'lumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo`lmish ko`rish sezgisi orqali o`zlashtiradi, undan so`ng eshitish, ta'm bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go`zallik anglanadi hamda his etiladi.

Go`zallikni his etish ko`nikmasi shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy muhim omili sanaladi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go`zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go`zalliklaridan bahra

olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq sohta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim.

Sababi farzand voyaga yetib ijtimoiy jarayonlar bilan bo'ladigan munosabatlarida go'zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo'lishini tushunishi zarur. Bu holat ayniqsa, go'zallikning moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rnida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, go'zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan mushohada qilingandagina uning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go'zallikning ma'naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o'rniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy-ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabat bildirildi, xalqona, ilg'or an'analar shakllanadi, milliy iftixorni yuksaltirishga keng jamoatchilik fikri jalb qilindi. [31. 82b]

Ana shularning natijasi o'laroq, mamlakatimizda amalga oshirilgan ezgu ishlarning ko'lami kengaydi. Endilikda bunyodkorlik g'oyasi go'zallik tushunchasi bilan hamohang olib borilganligini, bilish, anglash va tasavvur qilish qiyin emas. Buni o'zbek san'atida amalga oshirilgan ishlar orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, san'at ta'sir doirasi juda keng bo'lган ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, san'at asari insonni faqat voqelikdagi go'zalliklar bilan cheklanmaslikka, ayni paytda mavjud go'zalliklarni ongli tarzda mushohada qilishga, baholashga undaydi.

Masalan rassomlik san'ati go'zallikni bizga shu tariqa namoyon etadi. Chunki, go'zallik o'zini harakatsiz ham namoyon etishini aynan tasviriy san'at namunalarida ko'ramiz. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham, ma'lum ma'noda hissiyotlar bilan bog'liq. Masalan, oddiy xarsang tosh kishida alohida bir shissiy taassurot uyg'otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo'l urganidan so'ng, undan hayot

nafasi, insoniy hissiyotlar ufurib turadi. Go`zallikni barpo qilish ham huddi oilada farzandga huddi shunday tarbiya berish jarayoniga o`hshaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg`ularning jamlanganidadir; boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o`zi tomoshabinga o`tkazishni maqsad qilib qo`ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san`at asariga aylantiradi.

Ota –ona ham o`z farzandiga go`zallik tuyg`ularini, estetik madaniyatni, estetik tarbiyani singdirishga intiladi farzandi jamiyatda chiroyli faoliyat olib borib , yaxshi turmush kechirishi maqsadida. San`atdagi go`zallik esa hayotdagi go`zallik in`ikosi bo`lib, uning bitmas-tuganmas manbai-voqelikdir. Go`zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytaganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go`zallikni hamma yerda ko`ra bilish qobiliyatiga egadir. Zero bolaning estetik tarbiyasi jarayonida asosan uning tasavvurida haqiqiy, tabiiy go`zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilar, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, hushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqli.

Bolalarda haqiqiy go`zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrarda bo'lish tufayli shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas'ul insonlar ya'ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o'yinchoq o'ynashlarida befarq, loqayd bo'lmasliklari lozim va bu borada asosiy tavsiyachi vazifasiga fidoiylik bilan yondashuvi davr talabi sanaladi.[31,52b]

II bobga xulosa

Rivojlangan fan – texnika taraqqiyoti davrida jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va go`zallikka intilish o’rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan biri bo’lib hisoblanadi. Bu dolzarb masala mustaqil davlatimiz siyosatida ham o’z ifodasini topib, uni har jabhada yani insonni o’rab turgan atrof muhit, sanat, sport sohasida jamiyat bilan uyg’unligini ta’minlashni ham nazarda tutilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan estetik ta’lim tizimi o’quv fanlari doirasiga kiritiladi va har jabhada u sport sohasimi yoki sa`nat shuningdek tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan tejab-tergab unumli foydalanishga, tabiatning resus va boyliklarini asrab-avaylashga tabiat go`zalligini ko`ra bilishga doir bilimlar hajmini belgilash va uni o’qitishning samarali shakl va metodlarini qo’llashni taqoza etdi.

Zero, atrof muhitga inson ongli munosabat bo`lishi natijasida ekologik va estetik madaniyat va eklogik va estetik tasavvur shakllanadi. Bu esa, o’z navbatida, ekologik va estetik savodxonlikni oshishiga, o’quvchilarning tabiat go`zalliklaridan baxra olishga, har bir go`zallikni sevishida, avaylashida katta hizmat qiladi.

Estetik ta’lim muammolariga doir qator muommolar o’rganilgan yechim va yo’l yo’riqlari ishlab chiqilgan lekin shunga qaramay bugungu kunda go`zallikni, ulug`vorlikni qadriga yetmaydigan, qadrlamaydigan insonlar ham mavjud. Shunga ko’ra o’quvchi yoshlarda yoshligidan ya`ni oilaviy jarayonlarda shuningdek maktabgacha ta’lim muassasalarida, oliy o’quv yurtlarida o’quvchilarni go`zallikkaga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’limga ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish muhum hisoblanadi.

Bu harakat istiqbolga yo’naltirilgan hamda inson bilan go`zallik o’rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydigan ekologik madaniyat munosabatlari yotadi. Birinchi navbatda shaxsning go`zallik bilan aloqador bo’lgan me’yor munosabatlarni uning qay darajada qonun – qoidalarni anglab olishga bog’liqdir.

Bularning barchasi milliy-tarixiy merosimizni, boy qadriyatlarimizni o'rganmasdan chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lmasdan amalga oshmaydi negaki tarixni bilmay turub kelajakning ertangi kunini tasavvur qilish juda mushkul jarayondir. Lekin egallangan bilimlar shaxsning amaliy faoliyatida olingan ko`nikmalar malakaviy jarayonda namoyon bo'lmasa maqsadga erishib bo'lmaydi.

Biz ilmiy dissertatsiya ishini yozish jarayonida shuningdek tajribalar o'tkazish faoliyatida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. O`quvchini estetik ruhda, nafosat olamida tarbiyalash oiladan boshlanadi va bu muammo davlat va ijtimoiy buyurtmaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Barcha ta'lim muassasalari o`quvchi bilan nafosat olami o`rtasida o`zaro jonli muloqatni yo`lga qo'yish va buning uchun maxsus ilmiy-metodik ta'minotning etarli darajada amalga tadbiq etish muhum masala hisoblanadi.

2. Shaxs estetik madaniyatini va estetik ongini shakllantirish o'zining tarixiy ildizlariga ega bo`lib, bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlarimizga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o`quvchi yoshlarning estetik bilimi va estetik tarbiyasini oshirishda samarali vosita bo`lib hizmat qiladi.

4. O`quvchilani estetik madaniyat va tafakkuruni boyishda va ijobiy natijaga erishishda shuningdek, sanat olami, tabiat dunyosi bilan tanishtirishda tarixiy-qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovlari, tajriba-sinov kabi metodlar; mashg'ulot, sayohatlar (ekskursiya), intellektual o'yinlar; kompyuter, elektron darslik va internet vositalaridan keng foydalanildi. Kasb-hunar kollejida mashg'ulotlar o'tish jarayonida ilg'or texnologiyalarning noan'anaviy tashkiliy shakllari va ularning samaradorlik darajasiga erishildi.

5. Barcha o`quvchilar uchun umumiy va har bir soha mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha estetikaga oid materiallar mazmuni boyitildi, ularning hajmi belgilandi, o'rganish metodikasi ishlab chiqildi, tajribada sinab ko'rildi.

Bu esa O`quvchining go`zallik olami, nafosat dunyosi bilan o`zaro aloqasini yanada yaxshilashda, estetik dunyoqarashini shakllantirishni ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatdan ro`yobga chiqarishga imkon berdi.

6. O`quvchi estetik bilimini oshirishda innovastion metodlardan foydalanish zarurligini tajriba tasdiqladi.

Tajriba – sinov ishlari va ularning natijalari ilmiy dissertatsiya ishimizda o`z aksini topdi.

Demak oila hamma tarbiya turlarining boshlang`ich nuqtasi. Farzand dunyoni go`zal ko`zlar bilan ko`rishi uchun ota-onan farzandiga e`tiborli munosabatda bo`lishi, har bir narsa – hodisaning ijobjiy tomonlarini ko`rsata va singdira olishi darkor. Salbiy qarashlarning ijobjiy tomonlarini ko`ra olgan bolagina haqiqiy estetik jihatdan taraqqiy etgan, dunyoqarashga ega bo`lib shakllana oladi. Albatta bularning asosi oilaga borib taqaladi.

Farzand bamisoli loyga o`hshaydi donishmandlarning fikricha, unga qanday tarbiya berilsa shu tarbiya bilan kamol topadi, rivojlanadi, taraqqiy etadi. Bundan tashqari buyuk donishmandlardan biri aytgan ekan, bolani tarbiyalashdan ko`ra har qanday kata davlatni boshqarish osonroqdir deb, haqiqatdan ham farzandlar oilaning yuzi, jamiyatning ertangi kuni, ota-onan g`ururi obro`- e`tibori farzandning kelajakdagagi tolei va tarbiyasi bilan qiyoslanadi. [26. 21b]

Shunday ekan har qanday tarbiyani ham oqilona tashkil qilish, bola tarbiyasida e`tiborsizlik qilmaslik darkor aks holda bu nafaqat oila uchun balki jamiyat, davlatimiz uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun farzandni mehr bilan, dunyoni sevish bilan, jonzotlarni asrash, odamlarga g`amhorlik qilish , yordam berish, mushkulotda yaqinlardan qochmaslik, do`stga sadoqat tuy`g`ulari bilan, kattalarga hurmat saboqlari bilan tarbiyalamoq muhimdir, o`shandagina biz kelajagi boy, ertangi kuni ravshan, estetik madaniyati shakllangan komil insonni voyaga yetkazishimiz mumkin.

III. Ta`lim va tarbiya jarayonida estetik tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy asoslari.

3.1 Kasb-hunar kolleji o`quvchilarining estetik tarbiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuv.

Kasb-hunar kollejlarida estetika fanidan nazariy dars va amaliy darslarni o`quv moduli birliklarini yoki o`quv materiali bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy dars va amaliy darslar o`quv moduli birliklari faqatgina ”yo`l ko`rsatuvchidir”, uni o`qitish yoki o`rganish materiali sifatida tushunmaslik darkor. Dars o`quv moduli birliklari dars jarayonini boshqarib boradi va o`qitish va o`rganish materiallari o`rnini olmasligi kerak. Bunday o`quv moduli birliklari: o`quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni o`qitish va o`rganish materiallarini shuningdek, qatiy belgilangan vaqt chegarasini o`zida mujassam etadi.

Estetika darsi jarayonida ishlatilishi mumkin bo`lgan har qanday ma`lumotni ushbu o`quv moduli birliklariga kiritish tavsiya etiladi (2 ilovaga qarang)

Kasb – hunar kollejlarida estetika fani bo`yicha tasvirlaydigan qismlarga bo`lish namunasi (3 ilova) mazmuniy jihatlar asosida tuzilsada, uslubiy jihatlar bilan ham to`ldirilishi mumkin.

Yuqoridagi ilovada keltirilgan ma`ruza mashg`ulot rejasining tuzilishini tasvirlaymiz.

- 1. Bosqich:** bu ko`rsatkich ma`ruza mashg`uloti paytida yo`nalishni oson olish uchun zarur. Bosqich biror o`quv maqsadi belgilangan mavzuning boshi va yakuni bilan chegaradosh qismini o`zida mujassamlashtirish lozim.
- 2.** Biz bu bosqichni 5 qismga bo`lib o`rganamiz. 1-bosqich tayyorlov bosqichi bo`lib, uni amalga oshirish uchun 10 daqiqa vaqt ajratilishi lozim, 2-bosqich-da`vat bosqichi bo`lib, unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi, 3-bosqich anglash bosqichi bo`lib, unga 32 daqiqa vaqt sarflanadi, 4-bosqich mulohaza bosqichi bo`lib, unga 20 daqiqa vaqt sarflanishi lozim, 5-bosqich uyga vazifa bosqichi bo`lib, 3 daqiqa vaqt sarflanadi.

3. Vaqt: bu yerda bosqich davomiyligini baholash va uni rejada belgilash lozim.
4. Faoliyat: bu yerda bosqich bilan bog`liq faoliyat turi belgilanishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi. (4 ilova qarang)
5. O`quv va didaktik qulayliklar: bu ko`rsatkichga darsga mos keladigan va yordam berib, unga ko`rgazmali tus beradigan o`quv va didaktik qulayliklar kiritiladi. (5 ilovaga qarang)

Bir paytni o`zida o`quv va didaktik qulayliklarni ishlatib, biror mavzuni yoritish uchun quyidagi muayyan usullar qo`llaniladi. (6 ilovaga qarang)

6. Rejani qayta tekshirish uchun ko`rsatmalar: bir marta tuzilgan reja quyidagicha qayta tekshirilishi lozim;
 - o`quv maqsadlarini o`rganish: ushbu darsning o`quv maqsadi kerakli maxsus sohaga mos kelishi tekshiriladi, yani talabalar qanday nazariy ko`nikmaga ega bo`ladilar yoki qanday ko`nikma va tushunchalarga ega bo`lishlari kerak. Darsning yakuniy natijasi qanday bo`lishi kerakligi o`rganiladi;
 - guruhlar holatini o`ylab ko`rish: o`quvchilar maxsus soha to`grisida nimani bilishlari, ularning maxsus soha bo`yicha qanday tushunchalarga ega ekanliklari, guruh darsni o`zlashtirishi borasida e`tiborga olinishi lozim bo`lgan qiyinchiliklar, o`quv guruhi kichikroq guruhlarga bo`linishi kerakmi yoki yo`qmi kabi masalalar o`rganish kerak;
 - belgilangan vaqt: dars uchun qancha vaqt ajtatish kerakligi(boshqa tegishli faoliyatlarni ham inobatga olgan holda) kunning qaysi paytida dars o`tkazish lozimligi, qaydlar yoki vazifalarni tayyorlash uchun qancha vaqt zarurligini o`rganiladi;
 - jihozlar to`g`risida: kerakli asbob va reaktivlarning mavjudligi, videofilm yoki boshqa yordamlar kerakmi yo`qmi kabi muommolar o`rhaniladi.

Nazariy darsni qiyudagi ketma ketlikda o`tish tavsiya etiladi.

- Qiziqtirish (motivatsiya)
- Ma`lumot berish
- Bilim berish
- O`rganilgan bilimlarni qayta ishlash bo`yicha topshiriqlar berish
- Taxlil va sintezlar
- Baholash

Ushbu ketma-ketlik uchun vaqt odatda 80 daqiqani tashkil etadi. Dars boshlanishidan avval darsga tayyorgarlik bosqichining natijalarinini qisqacha tekshirib ko`rish maqsadga muofiq (7 ilovaga qarang)

O`zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish

O`quvchilarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o`zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarur. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so`ng faol faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o`qitish usullari hisoblanadi.

Taxlil va sintezlar

Mavzu tahlili orqali mavjud vaziyat elementlari alohida ko`rib chiqilishi, alohida hususiyatlar muhokama etilishi mumkin. Mazkur hususiyatlarni bir butun qilib sintezlash to`g`ri tasavvur hosil qilish va aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Bu yerda gap bilimning aloqadorlik darajalarini aniqlash to`g`risida boradi. Nazariyotga yaqinlashish va o`zlashtirilgan bilimlarni kelajakda ishlatish uchun sintez orqali boshqa ilm fan sohalari bilan bog`lash amalga oshiriladi.

Baholash

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o`quvchilar o`zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat natijalari guruhlarda ochiq-oydin va samimiylar muhokama qilinishi lozim. O`quv fani yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o`z navbatida, talabalarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, o`qituvchilarning o`z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Urganch ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji Bank ishi bo`limi 101 guruhda o`tkazgan ochiq dars namunasi

Ochiq dars maxsus reja asosida tayyorlandi. Asosan ochiq darsda noananaviy metodlarni qo`llash, darsga yangilik va faollik kiritish orqali darsning samarali tashkil qilinishi, shu bilan birgalikda ko`zlangan maqsad ya`ni o`quvchilarda estetik ong va estetik madaniyat, estetik his-tuyg`ularni shakllantirish, ijobiy dunyoqarash va tasavvur jarayonlarini ro`yobga chiqarish belgilandi va dars jarayonida bu maqsadga to`laqonli ravishda erishildi. Dars innovatsion metodlarda to`la bo`ldi. Negaki bu ochiq darsni tashkil qilishda aynan biz mavjud metodlardan foydalanmasdan yangi metodlarni yaratdik va bu metodlarni dars jarayoniga olib kirdik. Bizning yangilikimiz ham yutuqimiz ham shunda bo`ldi desam mubolag`a bo`lmaydi. Albatta bu metodlarning yaratilish negizida kata metodologik asos, va ilmiy harakat izlanish bor. Dars jarayonida kollej raxbaryati o`qituvchilari ham faol qatnashib, darsimizning yutuq va kamchiliklari, ilmiy salohiyati, tashkiliy uslublari, dars o`tish texnikasi, didaktik vositalardan foydalanish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar e`lon qilindi va qayd etildi. Darsning har bir bosqichida o`quvchilarning bilim jarayoni yanada kengayishi va ularagi faollik va tashabbuskorlik so`nmasligi uchun mavzuga oid innovatsion o`yinlardan va metodlardan foydalanildi. Darsning har bir bosqichlarida innavatikani yaqqol ko`rish va estetik jihatdan his qilish mumkin. Darsimiz estetikaga oid bo`lganligi sababli dars jarayonini shunday tashkil qilishga harakat qildikki bunda o`qituvchi va o`quvchilar darsning so`ngi bosqichigacha go`zallik, faollik, ijodiylilik, tashabbuskorlik sifatlari yuzaga chiqadi va o`zlarini namoyon qilishib boradi. Darsning har bir

bosqichida o`quvchilar individual va guruhiy tarzda baholanib borishdi. Asosan bu baholanish o`quvchilardagi ijobiy va salbiy ya`ni pozitiv va negative his tuyg`ularni yuzaga chiqarishi uchun maxsus kartishkalardan tarqatma rag`bat va jarimalardan, kulguli va xafa kartishkalaridan foydalanilgi o`quvchilarning dars jarayonida yanada faol va tashabbuskor qatnashishiga zamin bo`la oldi. Shuningdek darsni tashkil qilishda o`rganilgan mavzuni yanada mustahkamlash savollar bilan qatnashish va tashkil qilish ijobiy samara berdi. Yangi mavzu bayoni bosqichida ham o`quvchilarga mavzuni metodlardan foydalangan holda tashkil qilindi, yangi mavzuni mustahkamlash qismida yangi texnologiyalardan foydalanildi, o`zaro bellashuv jarayoni tashkil qilindi. Darsning yakuniy qismida o`quvchilarga uyga vazifa berildi va ulardagi dars ta`asurotini aniqlash va darsga mustaqil baho berish uchun smailkilardan foydalanib, doskaga ilinib qo`yildi va o`quvchilar o`zlarining darsning tashkil qilinishi borasidagi bahoni bizga berdilar va shu orqali biz darsimiz qanday tashkil qilinganini aniqladik, bundan tashqari darsning yakunida yaxshi va a`lo darajada qatnashgan guruh va o`quvchilar maqtov yorliqlari bilan baholandilar kichkina sovg`alarga ega bo`ldilar. Darsning texnologik kartasi va modeli 1 va 2 jadvallarda aks ettirilgan. (1va 2 ilovaga qarang)

Tashkil qilingan ochiq darsning rejasi bilan tanishsak.

“ Bilim, faqat bilimgina insonni ozod va ulug`vor qiladi”

shiori ostida tayyorlangan dars ishlanma

Tashkiliy qism.

1. Salomlashish
2. O`quvchilar davomatini olish
3. Uyga vazifani so`rash

Uyga vazifa: Go`zallik va oliyjanoblik to`grisida buyklarimiz aytgan hikmatli so`zlarni yodlab kelish.

O`rganilgan mavzu: Sharq olimlarining estetik qarashlarini o`rganish hususida

Dastlab o`qituvchi o`quvchilarni guruhlarga ajratadi. O`quvchilar xaltachadagi ranglarni tanlash orqali guruhlarga bo`linadilar va guruh nomi hamda sardorini tanlaydilar.

Quyidagi bosqichlar orqali o`tgan mavzu mustahkamlanadi:

1-bosqich. Aforizmlar bellashuvi. Bu bosqichda ikkita guruh o`quvchilari go`zallik va oliyjanoblik to`g`risida buyuklarimiz aytgan hikmatli so`zlarni bir-biriga aytib bellashadilar. Qaysi guruh o`uvchilari aforizmlarni to`g`ri va aniq aytsa qizil kartochkasi, noto`g`ri aytsa sariq kartochkasi beriladi. Shu tariqa bosqich oxirida qizil va sariq kartochkalar sanalib, g`olib va mag`lub guruhrar aniqlanadi. Go`lib guruhgaga ofarin nishoni beriladi, mag`lub guruhgaga xafa kartochkasi beriladi.

2-bosqich. Maqolni davom ettiring. Bu bosqichda o`quvchilar oldiga axloq va odob to`g`risidagi maqollar beriladi. O`quvchilar maqollarni davom ettirishlari lozim. Bosqich so`ngida guruh o`quvchilarining nechta maqol to`g`ri belgilaganiga qarab ofarin yoki hafa kartochklari beriladi.

3-bosqich. Yangi mavzu bayoni. Yangi mavzu bayoni taqdimot orqali o`quvchilarga tushuntirib beriladi.

Mavzu: Estetik ong va uning turlari.

Reja:

1. Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi
2. Estetik ong va uning turlari
3. Estetik his- tuyg`u, estetik baho, estetik did haqida tushuncha

Tayanch so`z va iboralar: estetika, estetik ong, estetik faoliyat, estetik tasavvur, estetik his- tuyg`u, estetik baho, estetik did. Estetika, nafosat, dizayin, estetik bilish, texnika estetikasi, estetik tafakkur, foydalilik, tabiatdagi go`zallik, san'atdagi go`zallik, milliy g`oya, milliy tarbiya, estetik tarbiya.

“Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib biz ko`zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo`lmaydi”

Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi: Estetik ong va estetik faoliyat o`zaro bog`liq bo`lib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi, ya`ni estetik faoliyat ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirishdir. Agar muayyon talab- ehtiyojlar bo`lmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmaydi. Estetik talab- ehtiyojlar insonni faoliyatga undaydi. Faoliyat esa yangi talab va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Insonning har qanday faoliyatida estetik manba manbai mavjud bo`lib, u o`z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma`naviyatga, ya`ni shodlik, sevinch, orzu – umid, erk ozodlik tuyg`ulariga suyanib yashaydi, voqeа va hodisalarni ijtimoiy baholashga harakat qiladi. Inson o`zining bu xususiyatini yo`qotib qo`ysa, uning faoliyati mohiyat tabiatidan mahrum bo`lib qoladi. Estetik ong kishining tabiat va jamiyat bilan o`zaro aloqasi jarayonida, mehnat jarayonida paydo bo`ladi va rivojlanadi. Estetik ong hayotning hamma sohalarini – tabiatni ham, kishining olamni o`zlashtirishga qatatilgan faoliyatni ham qamrab oladi

Estetik ong bir nechta turlarga bo`linadi

- Estetik his tuyg`u;
- Estetik did;
- Estetik baho;
- Estetik orzu;
- Estetik nazariya.

Estetik his – tuyg`u deganda nimani tushunasiz?(o`quvchilarga murojat qilish savoli) Estetik his – tuyg`u insonning voqealikka, kishilarga, o`z faoliyatiga nisbatan munosabatidir. Bu tuyg`u bizni o`rab turgan voqealikni estetik jihatdan his etish qobiliyatidir, uning go`zalligini, uyg`unligini sezishdir. Estetik tuyg`u ijtimoiy va tabiat hodisalarining go`zalligidan, inson go`zalligidan, inson mehnati, ijtimoiy faoliyat va san`at go`zalligidan zavq olishda namoyon bo`ladi. estetik his tuyg`u bu chuqr manaviy tuyg`udir. O`z ishini vijdonan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish,

hayotidan mammunlik tuyg`usi kuchli bo`ladi, shunday tuyg`u bilan yashash insonga estetik zavq beradi. Belinskiy shunday deydi... Estetik his – tuyg`uni bolalarda ham rivojlantiring, tarbiyalang. Bu barcha go`zallik va olujjanoblik manbaidir.

Qayqovus ham o`zining “Qobusnoma” asarida his tuyg`u azolarining ahamiyati tog`risida shunday deydi: “Qachonki, sezgilaring ishdan chiqib eshitmoq, ko`rmoq, mazani bilmoq, qattiq va yumshoqni ushlab bilish lazzatidan mahrum bo`lsang, bunday yashashdan o`zing ham shod bo`la olmasang, boshqalarni ham shod qila olmasang, boshqalarni bo`yniga tushgan og`ir yuk bo`lasan, bu hilda yashashdan o`lim yaxshiroqdir”, - deganlar.

Estetik did. Estetik did murakkab va ko`p qirralidir. Estetik did insonning fikr – mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma`naviy ijodkorligi orqali namoyon bo`ladi. Estetik did zaminida go`zallikni xuniklikdan ajrata bilish va undan beg`araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did insonning dunyoqarashi, ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq ko`rinadi. Lekin estetik qarashlar va bilimlar hamma vaqt ham estetik didni ifodalamaydi.

Bazan inson muayyan estetik qarashlar va estetik bilimlarga ega bo`lib turib ham past yoki rivojlanmagan estetik did egasi bo`lishi mumkin. Farobiy “estetik did go`zallik va huniklik to`g`risida hukm chiqarishdir” -deb ta`riflaydi. Estetik did bir o`rinda estetik baholshhamdir, masalan biron tomoshadan so`ng kishilar “yoqdi”, “yoqmadi”, “maroqli”, “zerikarli” deb hukm chiqaradilar. Bu hukm didning sof bahosi hisoblanadi.

Estetik baho: Estetik baho predmet yoki hodisaning qiymati va kamchilik nuqsoni haqida hukm chiqara olishdir. Biz voqealikka estetik baho berar ekanmiz, emotsiyonal jihatdan o`sha narsa bizda uyg`otgan tuyg`uni ifodalaymiz. Masalan nurofshon ko`cha, sershovqin shaxar, ajoyib inson kabilar. Estetik baho umuman voqealikka, jumladan, istagan bir aniq buyumga bo`lgan nuqtai nazarimizning ajralmas qismidir.

Estetik did va estetik baholash o`rtasida farqli va umumiylar mavjud.

Estetik baholash – didning aynan o`zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og`zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy tomon ko`proq o`rinni egallaydi. Did fikr-mulohazalari doimo baholanayotgan narsaning, voqealari hodisaning anglab o`zlashtirilishi bilan bog`liq bo`lib, boshqalarga mo`ljallangan holda dalillarning mantiqiy isbotlanishini taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda estetik baho jamiyat va tabiat hodisalari, inson mehnatining, sa`nat asarining mahsuli haqida asosli estetik muhokamaning natijasidir.

4- bosqich. Qaysi guruh bilimdon? Bu bosqichda yangi mavzu yuzasidan ikkita guruh o`quvchilariga ham bir xil savollar beriladi. Qaysi guruh o`quvchilari mashqni to`g`ri va aniq bajarsa, ofarin nishoni, noto`g`ri bajargan guruh o`quvchilariga hafa kartochkasi beriladi.

5- bosqich. Zinama-zina o`yini. Bu bosqichda o`quvchilarni faollashtirish, jadallashtirish maqsadida o`yin texnologiyasidan foydalanamiz. Bunda guruhlardan ikkita ishtirokchi chiqib, o`qituvchining savollariga javob berishadi. O`qituvchi ishtirokchilarga har sohadan savollar beradi. To`g`ri javob bergen o`quvchi zinalarga kartochkalarni qo`yib borishadi. O`yin oxirida zinadagi kartochkalar sanaladi. Qaysi guruh o`quvchisi zinaga birinchi bo`lib chiqib olsa, g`olib hisoblanadi va ofarin nishoni taqdim qilinadi.

6-bosqich. O`qituvchi va o`quvchi texnologiyasi. Bu bosqichda har bir guruh a`zolari yangi mavzu yuzasidan savol tuzadilar va o`zaro guruhlar sandiqchalarga solingan savollarni almashadilar. Bunda savolni o`qigan guruh ishtirokchisi o`quvchi sanaladi, savolni tuzgan guruh ishtirokchisi o`qituvchi sanaladi. O`qituvchi bunda kuzatuvchi hisoblanib, o`quvchilarni nazorat qiladi. O`quvchilar bir-birini o`zaro baholaydilar. Qaysi guruh ishtirokchilari savolga to`g`ri javob bersa, qizil kartochkasi, noto`g`ri javob bergen guruh ishtirokchisiga sariq kartochkasi beriladi va bosqich oxirida kartochkalar sanalib, g`olib va ma`glub guruhlar aniqlanadi.

7-bosqich. Kim bayroqchaga tez yetib kela oladi? Bu bosqichda har guruhdan bitta o`quvchi chiqadi. O`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga ha yoki yo`q javoblarini berishlari lozim. Agarda berilgan savolni javobi to`g`ri bo`lsa ha deb, noto`g`ri bo`ladigan bo`lsa yo`q deb javob berishlari lozim. To`g`ri javob bergen ishtirokchi bayroqchaga yetib kelib g`olib bo`ladi va ofarin nishoni bilan taqdirlanadi.

8-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash. Bu bosqichda ko`rgazmada berilgan so`zlarning ya`ni estetik tushunchalarning antonim va sinonimlarini topishlari kerak bo`ladi. Bunda darsda nofaol qatnashgan o`quvchilar ishtirok etadi. Masalan: go`zallik-xunuklik, oliyjanoblik-tubanlik kabilar.

9-bosqich. Sardorlar bellashuvi. Bu bosqichda guruh sardorlarining nutqiy savodxonligini aniqlash, epchillik, chaqqonlik mahoratlarini belgilash maqsadida tez aytishlar beriladi. Guruh sardorlarining bir nafasda tez aytishni necha marta aytganliklari hisoblanadi va g`olib guruh sardoriga ofarin nishoni, mag`lub guruh sardoriga hafa kartochkasi beriladi. Bu bosqich orqali kuzatuvchi va qatnashayotgan o`quvchilarda ijobiy estetik qarash va idrok jarayonlari shakllanadi. Tez aytish: Qishda kishmish pishmasmish, Pishsa kishmish qishmasmish.

10 -bosqich. Omadli o`yin. Bu bosqichda har guruhdan o`zini omadli deb hisoblaydigan ikkita o`quvchi davraga chiqadi va sharchalarni yorib ichidagi kulgu yoki hafa kartochkalarini olishi mumkin. Qaysi guruh o`quvchisi kulgu kartochkasini olsa, ofarin nishoni, hafa kartochkasini olsa, hafa kartochkasi beriladi.

Darsni yakunlash

Uyga vazifa: - yangi mavzu bo`yicha ma`lumot to`plash, konspekt olish va savollarga javob yozib kelish

- O`quvchilarni a`lo, yaxshi, qoniqarli baholar bilan baholash
- Dars so`ngida g`olib guruhni aniqlash va maqtov yorliqlari berish.

Kollejda ochiq darsimiz yuqoridagi tartibda tashkil qilindi. Dars yaxshi samaradorlikka ega bo`ldi, darsda o`quvchilar faolligi, tashabbuskorligi, intiluvchanligi yo`qatilmadi, negaki darsda interfaol o`yinlarning bo`lishi va jalb qilinishi darsning yanada sifati va samarasini oshirdi.

Darsda metodlardan to`g`ri va oqilona foydalanildi. Har bir metod darsning bosqichidan kelib chiqib tashkil qilindi va saralandi. Bekon aytganidek “Metod” bu o`qituvchining yo`lini yorituvchi chiroq sanaladi qachonki o`qituvchi bu metoddan oqilona foydalana olsagina yaxshi natijaga erisha olishi mumkin hisoblanadi deb takidlaydi. Haqiqatdan ham darsning samarasi metodning qanday ekanligiga juda kata ta`siri bor. Dars samarali tashkil qilindi va k`ozlangan natija va maqsadga yani o`quvchilarda estetik dunyoqarash, madaniyat, estetik ong va ma`naviyat tushunchalari shakllantirildi.

3.2Tajriba-sinov ishlarining dasturi va natijalari.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar muayyan psixologik shart-sharoitlar hamda omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shunga ko'ra pedagogik omillarni psixologik omillardan ayricha holda o'rghanish va tatbiq etish mutlaqo mumkin emas. Chunki o'quvchilarning estetik tarbiyasidagi asosiy tushunchalar, estetik madaniyat, estetik ong, estetik dunyoqarashni rivojlantirish shaxsnинг individual xususiyatlari va shaxs tuzilishi bilan chambarchas bog`liqdir.

Shaxsga nisbatan yondashuvlar (falsafiy, sotsiologik, pedagogik, psixologik, tibbiy va h.o.) turlicha bo'lishi mumkin. Ammo o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda pedagogik va psixologik omillar bir-birini uyg'un ravishda to'ldirib, dinamik shakllanish xarakteriga ega bo'ladi. Bunga oid izlanishlar tadqiqot ishimizning yakuni o'laroq, umumlashtiruvchi natijalar so'ngida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotlar orqali psixologik omillarning o'quvchilarda estetik tarbiyani rivojlantirishdagi mohiyati hamda pedagogik omillar bilan uyg'unlik tomonlari o'r ganilgan.

Tadqiqiy izlanishimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchida nafosat tarbiyasini shakllantirish ularda estetik idrokni shakllantirish bilan uzviy bog`liqdir. Shu sababdan, Urganch shahar Ijtimoiy iqtisodiyot kasb-hunar kolleji o'quvchilaridan (78 nafar) anketa so'rovnomasasi o'tkazilib, estetik idrokni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi 40 dan ortiq psixologik omillar o'r ganildi. Ana shulardan eng zarurlarini saralab, ierarxik tartibda joylashtirdik (3-ilovaga qarang)

O`quvchilarda estetik idrokni rivojlantirishga turtki bo`luvchi eng zarur psixologik omillar 12 taga keltirildi. Shulardan eng birinchisi o`quvchining temperament xususiyatlari bo`lib chiqdi. O`quvchining temperament xususiyatlaridan tez qo`zg`lish va qiziquvchanlik, ta`sirchanlik va idrok qila bilishlik go`zallikni xis qila bilish va estetik didni shakllantirishga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omildir . O`quvchilarda estetik idrokni rivojlantirishga asos bo`luvchi juda ko`plab psixologik omillar bevosita shaxs temperamenti bilan chambarchas bog`liq ekanligi tajriba-sinov jarayonida ma'lum bo`ldi. Shundan kelib chiqib, o`quvchilarning temperamenti va uni jins bilan bog`liq tomonlariga ham e'tibor qaratildi. Tadqiqotlarimizda estetik idrokni namoyon qilishda qiz o`quvchilar o`g`il o`quvchilarga nisbatan bir oz ustun turishlari aniqlandi. Bu hol ularning qaysi temperamentga mansubligi bilan izchil bog`liq ekanligini ham ko`rsatdi. Buni biz jadval ko`rinishida quyidagi tartibda umumlashtirdik (4-ilovaga qarang).

Estetik idrokni shakllantirish “inson-go`zallik” munosabati san’at, sport, sevimli insonlar, ilg’or kasb egalari, tabiat,musiqa bilan chambarchas bog`liqdir. O`quvchining ta`lim jarayoni ijodiy mehnat bo`lgani uchun u estetik idrokini o’z dunyoqarashlaridan kelib chiqib, aqliy va ekologik tarbiya bilan uyushtirishtirgan xolda rivojlantiradi. Ilmiy tahlillar va quyidagi so’rovnama javoblari orqali o`quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishda ularning hayot tarzining o`rn haqida umumiy xulosa chiqarishga olib keldi (5-ilovaga qarang).

Jadvalda keltirilgan so’rovnama quyidagi og’zaki savol-javob (metodi) asosida yanada to’ldirildi.

- 1.Ijtimoiy faol hayot tarzini sog’lom hayot tarzi desa bo’ladimi?
- 2.Aslida qayerda yashashni orzu qilgan edingiz (qishloq, qo’rg’on, shahar)?
- 3.Uyqudan oldin ertangi ishlarni o’ylab ko’rasizmi?
- 4.O’z-o’zingizga hisob berib yashaysizmi?
- 5.Atrofingizdagi kelishmovchiliklarga munosabatingiz qanday?

6. Badiiy qaxramonlarda o`xshashni xoxlaysizmi ?
- 7.Xunuk bo`lib qolishdan qo'rqsizmi?
8. Yaqin do`sstlariningiz bormi ?
9. Yaxshilik bir kun kelib taqdirlanadi,deb ishonasizmi ?
- 10.Milliy kuylarni eshitganingizda faxr tuyg`usini xis qilasizmi ?
- 11.Suratlar tomasha qilishni yoqtirasizmi?
- 12.Xushmuomilalik- madaniyat ko`rsatkichi ekanligiga ishonasizmi?
- 13.Sog`lom turmush tarzini yoqlaysizmi?
- 14.Spiritli ichimliklarga munosabatingiz?
- 15.Insoniyat oldida turgan global muammolarga qanday qaraysiz? (ekologiya, terrorizm, diniy ekstremizm, asr kasalliklari, kosmik sinovlar va b.).
- 16.Gullarning nomini yoddan bilasizmi?
- 17.O`simliklarga og`rinmay suv quyasizmi?
- 18.Ichki go`zallik tashqi go`zallikdan muhimligiga ishonasizmi ?

Yuqoridagi berilgan javoblar taxlili va “inson-go`zallik” munosabatlari asosida o’quvchida nafosat tarbiyasini shakllantirishda ularning hayot tarzining o`rni va estetik idrokini shakllanganlik darajasini o`rgandik:

- men o’zimni sevaman. Tashqi va ichki go`zallikka intilaman.
- oilamdagilar baxti, do`sstlarim osoyishtaligini hamma narsadan ustun qo’yaman.
- yangilikka qiziqaman, mustaqil fikr yuritish, mustaqil nimadir yaratish va ijodiy mehnat bilan samarali shug’ullanish mening hayot orzuimga aylangan.
- bo’sh vaqtimda gazeta, jurnal, badiiy kitob o`qish, to`garakka qatnashish,sport bilan shug’ullanaman. Tomorqada jismoniy ishlar bilan mashg’ul bo’laman, radio

eshitaman va televizor ko'raman. Do'stlar bilan istirohat bog'larni aylanamiz, imkoniyatdan kelib chiqib teatr, muzey va kinoga boramiz.

- jamoada va hayotda har doim o'z o'rni bo'lishini istayman.
 - ozodalikni xush ko'raman. Fasnga va yoshimga mos ravishda kiyingan holda, gigiena tartib-qoidalalariga amal qilib yashayman.
 - rejim asosida ish ko'raman. Kech 20⁰⁰ dan so'ng taom iste'mol qilmayman. Kechasi uyqudan oldin toza havoda sayr qilaman. Sutkasiga 7-8 soat uxlayman. Bir xil hayot tarzini yoqtirmayman.
 - musiqa tinglash, turli yo`nalishdagi qo'shiqlar eshitishni xush ko'raman. Zamonaviy, she'r va ohangi jihatdan mazmunli bo'lgan estrada qo'shiqlari hamda kliplarni ko'rib boraman. Sport yangiliklari hamda dunyo xabarlarini(chet el xabarlar) eshitib boraman.
 - tez-tez kompyuterda ishlashga odatlanganman, internet orqali do'stlar topaman, rang-barang yangiliklarni o`qiymen.
 - eng yomon ko'rganim: o`zidan qo'nimsizlik va maqsadning yo`qligi.
- Tadqiqot ishimizning yakuni o'laroq nafosat tarbiyasini shakllantirishning psixologik mexanizmlari quyidagicha ekanligi aniqlandi:
- atrofdagilarga nisbatan diqqat-e'tiborli va iltifotli bo'lish
 - suhbатdoshni tinglash qobiliyatiga ega bo'lish
 - verbal (so'z va nutq orqali) ta'sir ko'rsatishga erishish
 - xushmuomalalik bilan insonlar ruhiyatini ko'tarish
 - boshqalarni tanqid qilishdan ko'ra, yaxshi sifatlarini ko'ra bilish
 - yaxshilik qilinsagina yaxshilik qaytishi mumkinligini anglash
 - o'zgalarning xato va kamchiliklarini yuziga solmaslik, ta'na qilmaslik
 - bahs-munozaraga g'olib chiqish maqsadi bilan kirishmaslik
 - ijtimoiy tajribaga asoslangan muloqotni yo'lga qo'yish
 - madaniyatlilik malakalarni hosil qilish
 - imkon qadar sevimli mashg'ulot bilan band bo'lish, foydali mashg'ulot kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashini bilish

- oiladagilarga, atrofdagilarga nisbatan muloyim va mehribon bo'lish, minnatdorchilik bildirish, "kechirasiz", "raxmat", "uzr" kabi so'zlarni ishlatish.

Demak, o'quvchi shaxsining nafosat tarbiyasini shakllantirish va estetik ong va idroki rivojlantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, hamda bu jarayon murakkab bo'lib, ko'plab psixologik va pedagogik omillar bilan bog'liq ekanligini tadqiqot jarayonida isbotlandi.

Shaxs nafosat tarbiyasini shakllantirishda pedagogik-psixologik omillarning barqarorligi ayni paytda ijtimoiy immunitet vazifalarini o'taydi. Kelgusida go'zallik yaratish va uni saqlab qolish malaka, ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlaydi.

Nafosat tarbiyasi – shaxsni shakllantirish jarayonining muxim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning estetik ongini shakllantirishga qaratilgan. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya - lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

III bobga xulosa

Barkamol inson g`oyasini shakllantirish bugungi rivojlanayotgan davlatimizning, ijtimoiy-iqtisodiy sohamizning shuningdek ta`lim mazmunining asosiy talablaridan biri bo`lib, bu maqsadni amalga oshirishda ta`lim muassalarining o`rnii juda kattadir. Ta`limning samaradorligini oshirish hususan o`quvchi yoshlarda darsni tashkil qilishda o`ziga hos no`ananviyliklar mavjud bo`lishi, har bir dars tizimida innovatsion loyihiilar, innovatsion qarash va fikrlar, metodlar ustunligi namoyon bo`lishi darkor. Darsning mazmuni nafaqat o`qituvchining pedagogik va psixologik mahoratiga bog`liq tarzda talqin qilinishi mumkin balki dars jarayonidagi navotorlik, innovatsiya ham munim ahamiyat kasb etadi. Aynan estetika fani yuzasidan to`xtaladigan bo`lsak, o`quvchilar tafakkurida tevarak – atrofga nisbatan, mavjud moddiy va ma`naviy boyliklarga nisbatan hurmat va bu boyliklarni go`zalligini ko`ra olish, idrok qilishi, qadrlay olish hissini shakllantirishda estetika faninng va bu fanni o`tayotgan o`qituvchining hizmati kata hisoblanadi. O`sib kelayotgan yosh avlodga nisbatan borliqqa tabiatga mehr muhabbatni shakllantirish lozim. Aynan o`quvchi yoshlarda estetik did, estetik madaniyat, estetik ma`naviyat, estetik baho tushunchalarini shakllantirish uchun eng avvo lozim o`quvchilarda go`zallikni ko`ra olish idrokini yani tafakkur jarayonlarida o`zaro analiz va sintez jarayonlar to`qnashuvini vujudga keltirish lozim sanaladi.

Bu bilan nima demoqchiman yani soda qilib aytganda o`quvchi o`sib, chiroy ochib borayotgan gulni qadrlay olishi uchun, go`zalligini ko`ra olishi uchun, uni uzmasdan asrab avaylashi uchun eng avvo o`sha gul haqida ijobiy tasavvurga ega bo`lishi lozim ya`ni bunda o`qituvchi tabiat qo`yniga sayohat uyishtirishi yoki bo`lmasa dars jarayonida yangi texnologiya va metodlarni qo`llashi masalan: gulning danakidan o`sib kelayotgan jarayoni, chiroy ochib gullayotgan payti, video roliklar orqali ko`rsatilsa o`quvchida estetik idrok ya`ni go`zallikni ko`ra olish va baxra olish sa`nati rivojlanadi va tarkib topadi. Demek estetik tarbiyani shakllantirishda biz bevosita o`quvchini sensor tarbiyuasini ham inobatga olish darkor.

Umumiy xulosa

Ilmiy dissertatsiya ishimizning tadqiqot tahlillari yuzasidan xulosa va tavsiyalar sifatida: birinchidan: kasb- hunar kollejlarda estetik tarbiyani amalga oshirishda innovatsion yondashish, barcha ta`lim- tarbiyaviy tadbirlar bo`lg`usi kichik mutaxassislarini hayotida ishlab chiqarish jarayonida o`z o`rnini topishda, o`z kasbini mukammallashtirish, ixtirochilik, tashkilotchilik, kishilar bilan munosabatlarda, ishlashga zaruriy estetik bilim, ko`nikma, malakalarni egallahda mustaqil fikrlashga erishadilar. Chunki ularni mazmunida birinchi navbatda go`zallikni his qilish, anglash, idrok qilish hususiyatlari jamlangan boladi. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashdagi o`rni kabi masalarga doir suhbatlar, ilmiy nazariy anjumanlar, kitobxonlar kechalari, uchrashuvlar kabilar amalga oshirilishida turli testlar, innovatsion yondashish, pedagogik texnologiyalardan, didaktik va ro`lli o`yinlardan foydalanish uslublari bo`lg`usi kasb egalarining faoliyatlarida o`zlari rahbarlik qilayotgan guruhlarda shogirdlarning estetik madaniyati estetik tarbiyasini tashkil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan: estetik madaniyat va estetik tarbiyaning ilmiy nazariy asoslarini har tomonlama izohlash, kasb – hunar kollejlari o`quvchilarida bu tushunchalarini har tomonlama idrok qilish, estetika, estetik madaniyat, estetik tarbiya tushunchalarini bosqichma – bosqich shakllanishi, ularni tarixiy ijtimoiy rivojlanishi jarayonlari haqida asoslangan manbalarni o`quvchilar ongiga yetkazish, bu jarayonda sharq mutafakkirlarining fikr mulohazalari, xalq og`zaki ijodi, o`zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari, mentaletiti asosiy o`rinni egallahini tasdiqlash zarur.

Uchinchidan: kasb – hunar kollejlari o`quvchi yoshlarning estetik madaniyati, estetik tarbiyasining asosi oila va jamoatchilik ekanligini tasdiqlash, ularni natijalarining eskizlash, savol-javob anketalariga olingan javoblar orqali estetik madaniyat qiymati ko`rsatkichini aniqlash kabilar asosiy manba sifatida tasdiqlanishi;

To`rtinchidan: kasb – hunar kollejlari o`quvchi yoshlarning estetik dunyoqarashi, estetik tarbiyasining asosi turli ta`lim-tarbiyaviy tadbirlar, yangi pedagogik

texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy darslar, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish ilg`or tajribalarni ommalashtirish, pedagogik shart sharoitlarga mos uslub, vosita va shakllardan foydalanish. O`quvchi- yoshlarning estetik ong, estetik tarbiya samaradorligi darajasini oshirishga xizmat qilish;

Beshinchidan: kasb – hunar kollejlari o`quvchi yoshlarning estetik bilimi, estetik tarbiyasi shunday amalga oshiriladigan oddiy jarayon bo`lib qolmasdan, professor – o`qituvchilar, muhandis – ustozlar tomonidan ongli ravishda amalga oshiradigan jarayon sifatida , bu jarayonda o`quvchi – yoshlarning yoshi, psixologik hususiyatlari, bo`lg`usi kasbiga qiziqishi, intilishi, kasblarni hisobga olgan holda ish tuta bilishlari, na`munaviy tadbirlar rejalaridan umumiyl holatda va yakka tartibda foydalana bilishlari.

Oltinchidan: o`quvchi – yoshlarning estetik ma`naviyati va estetik tarbiyasini amaliy – pedagogik asoslari sinov – tajribalar orqali tasdiqlanishi borasida qo`llanilgan kuzatish, suhbat, qiyoslash kabilar orqali aniq masalalarni isbotlash zarurligi.

Yettinchidan: kasb – hunar kollejlari o`quvchi yoshlarning estetik madaniyat tushunchasi, estetik tarbiyasi asosida fanlararo, mavzulararo, turli tarbiyaviy tadbirlararo munosabatlarni aniqlash, natijalarni tahlil qilish asosida ilmiy farazlarni hayotga tadbiqi kabi masalalar asosiy o`rinni egallashi ilmiy dissertatsiya ishimizni maqsad va vazifalarini har tomonlama yoritib berishga asos hisoblanadi.

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, estetik tarbiyani shunchaki kasb-hunar kollejlarida amalga oshirish qiyin buning uchun mutaxassisdan alohida ma`suliyat innovatsion yondashuv va faoliyat ta`lab qilinadi. Albatta go`zallikni his qilish uchun uni eng avval ko`ra olish, idrok qila olish darkor o`shandagina mavjud go`zalliklarni qadriga yetishimiz asrashimiz mumkin. O`quvchi yoshlarda estetikaga hos kategoriyalarni shakllantirishda ularning sensor tarbiyasiga ham alohida ahamiyat bermoq muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. “O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”T.1.- Toshkent: O`zbekiston, 1996.- 364 b.
2. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” T.2.-Toshkent: O`zbekiston, 1996.- 380 b.
3. Karimov I.A. “Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir” T.3.-Toshkent: O`zbekiston, 1996.- 366 b.
4. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo`lidan ” T.4.-Toshkent: O`zbekiston, 1996.- 349b.
5. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi”T.5.-Toshkent: O`zbekiston, 1997.- 384 b.
6. Karimov I.A. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida”T.6.-Toshkent: O`zbekiston, 1998.- 429b.
7. Karimov I.A. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz ” T.7.-Toshkent: O`zbekiston, 2000.- 528b.
8. Karimov I.A. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz” T.8.-Toshkent: O`zbekiston, 2002.- 432 b.
9. Karimov I.A. “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak ” T.9.-Toshkent: O`zbekiston, 2002.- 432 b.
10. Karimov I.A. “Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li” T.10.-Toshkent: O`zbekiston, 2003.- 320 b.
11. Karimov I.A. “O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi” T.11.- Toshkent: O`zbekiston, 2005.- 448b.
12. Karimov I.A. “Barkamol avlod yili ” davlat dasturi - Toshkent: O`zbekiston, 2010.- 80 b.
13. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Toshkent: O`zbekiston, 2010.- 80 b.

14. Karimov I.A “Yuksak bilim va intelektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamalakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” XXI – asr ro`znomasi, 23 – fevral 2012 yil 08-(432) son

O`zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun osti hujjatlari

15. “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”. — Toshkent: O`zbekiston, 2009. - 40 b.
16. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 29 – avgust 1997 yil, 184 b.
17. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: O`zbekiston. 1997,192 b.

Maxsus adabiyotlar

18. Qaykovus. “Qobusnoma” Toshkent: O`zbekiston, 1992.- 254 b
19. M.Xayrullayev F.T. “O`zbekistonda ijtimioy falsafiy fikrlar tarixidan”. Toshkent: O`zbekiston, 1995.- 206 b
20. A.Ibroximov “Vatan tuyg’usi” Toshkent: O`zbekiston, 1996. – 247 b
21. Bespalko V. T “Pedagogika va ilg`or texnologiyalar” (rus tilida). 1989 yil, 324 b.
22. B. Ahmedov. “Temur tuziklari” Toshkent: “G`ofur G`ulom” 1991.- 255 b.
23. Munavvarov A. K “Pedagogika” Toshkent: “O`qituvchi” 1994.- 494 b.
24. Safo Ochil “Mustaqillik ma`naviyat va tarbiya asoslari”Toshkent: “O`qituvchi” 1995.- 240 b.
25. Munavvarov A. K “Oila pedagogikasi” Toshkent: “O`qituvchi” 1996.- 384b
26. Imomnazarov.M.S “Milliy ma`naviyatimizning takomil bosqichlari” Toshkent: “Sharq” 1996.- 242 b.
27. Nazarova T. S “Pedagogik texnologiyalar: yangi bosqich” (rus tilida). M. Pedagogika 1997.- 366 b.
28. Matriqzamin. Hikmat bo`stoni (to`plam). Toshkent: “Sharq” 1997.- 242 b.

29. Xasanboyeva O. “Oilada ma`naviy-axloqiy tarbiya”. Toshkent: “Sharq” 1998.- 368 b.
30. Turayeva O.O “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi”. Toshkent: “O`qituvchi” 1998.-254 b.
31. Xasanboyeva O. “Oila pedagogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b.
32. Ismoilova Sh.K. “Ta’lim jarayonida innavatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash shartlari”. “UrDU” 2009.-182 b.
33. Tolipov O’.Q. “Oliy pedagogik ta’lim tizimida umum mehnat va kasbiy ko’nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari”. Toshkent: «Fan», 2004.- 299 b.
34. N.Sa'dullayev «Go’zallikning sirli olami» Toshkent: “O`qituvchi” 1993.- 254b
35. E.Umarov «Estetika» Toshkent: “O`qituvchi” 1995.- 306b
36. N.Raxmatova. “Yoshlarning ma’naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli” Xalq ta’limi. №4 T, 2005 yil 2b
37. “Estetika” Uzdavnashr. Toshkent: 2004 yil.
38. Falsafadan qomusiy lug’at. Toshkent: 2005.- 586b
39. Imom Al- Buxoriy. “Hadis” 4-jidlik, Toshkent: 1992 - 97.- 546b
40. U. Xayyom. “Navro’znama” Toshkent: “O`qituvchi” 1990.- 326b
41. E. Yusupov, D. Ismoilov. “Odamiylik saboqlari”Toshkent: “O`qituvchi” 1997. -352b
42. B. Ismoliov. “Tragediya va xarakter” Toshkent: “O`qituvchi”1997.- 325b
43. Maxmudov. “Go’zallik va hayot” Toshkent: “O`qituvchi”1997.-145b
44. A. Xo’jayev, K. Mastonov “Navoiy va inson ma’naviyati” T:”Sharq”1994.- 286b
45. E.Umarov Estetika, M.G’ulomov “Komediya va hayot haqiqati” xalq ta’limi №3. 2003 yil 300b

Foydalanilgan internet saytlari:

1. [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).
2. www.search.re.uz - O`zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
3. www.pedagog.uz
4. www.ref.uz. - Referatlar to`plami
5. www.ziyonet.uz.
6. www.estetic.de

Ilovalar

1 ilova



(2 ilova)



(3 ilova)

Bosqich	Vaqt	Tashkiliy qism	O`qitish yoki o`rganish usullari	O`quv va didaktik qulaylikalar
1-bosqich-tayyorlov-10 min 2-bosqich- da`vat- 15 min 3-bosqich-anglash-32min 4-bosqich-mulohaza-20min 5-bosqich-uyga vazifa-3 min	80 minut	Salomlashish, davomat olish, o`quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash. Zarur ko`rgazmali qurollarni darsga hozirlash	Kompyuter texnologiyasida axboratlashtirilgan tizimdan foydalangan holda o`rgatish	Taqdimot va ovozli pochtadan foydalanish


(4 ilova)

Nazariy dars uchun	Amaliy mashg`ulot uchun 4 pog` onali usul asosida
Mayl	Mayl va axborot
Axborot	Namoyish
Mavjud bilimlarning boshqa vaziyatlarda qo`llash	Imitatsiya (ko`rsatilgan tarzda takrorlash)
O`rganilgan mavzularni mustahkamlash va takrorlash	Mashq qildirish

(5 ilova)

Nazariy dars uchun	Amaliy mashg`ulot uchun
Doska tasvirlari	Texnik chizmalar sxemalar
Slaydlar	Nazorat ro`yhatlari va foydalanish bo`yicha ko`rsatmalar
Matnli hujjatlar (electron matnlar)	Ish rejalari
Javoblar varaqi kiritilgan yozma matnlar yoki topshiriqlar	Baholash varaqlari

(6 ilova)



Dastlabki tayyorgarlik	Tahlil natijalari
Belgilangan vaqt	Mazmuni talabalarga yetkazish uchun vaqt yetarlimi?
Xonalarga taalluqli sharoitlar	Didaktik vositalar tayyormi? Guruh uchun stol va stellar yetarlimi
Vositalar	Texnik vositalar(proektorlar) ishlaydimi?
Hujjatlar	Dars rejasi bormi? Yetarli tarqatma qulayliklar va topshiriq varaqalari bormi?

Nazariy va amaliy mashg`ulotining ta'lim texnologiyasining modeli

Nazariy darsga ajratilgan vaqt – 40 daqiqqa	O`quvchilar soni – 21
O`quv mashg`ulotining shakli:	Ma'lumotli nazariy dars
O`quv mashg`ulotining tuzilishi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi 2. Estetik ong va uning turlari 3. Estetik his- tuyg`u, estetik baho, estetik did haqida tushuncha
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	O`quvchilarda yangi mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish
Pedagogik vazifalar: -Mavzuni sharhlash. -Mavzuning asosiy maqsadini yoritib berish. <ul style="list-style-type: none"> ✓ Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi haqida ma'lumot berish ✓ Estetik ong va uning turlari haqida so`zlash ✓ Estetik his- tuyg`u, estetik baho, estetik did haqida ko`nikma hosil qilish 	O`quv faoliyatining natijalari: <ul style="list-style-type: none"> - Mavzudagi asosiy tushunchalarni tahlil qiladilar mavzuga doir atamalarni o`rganadilar - Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi i o`rganadilar - Estetik ong va uning turlari haqida misollar orqali tahlil qiladilar - Estetik his- tuyg`u, estetik baho, estetik did haqida bilimga ega bo`ldilar
Ta'lim usullari	Muammoli ma'ruza, dialog, komotoid, insert, aqliy hujum
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, frontal, umumjamoa
Ta'lim vositalari	Kompyuter, proektor, slaydlar, tarqatmalar, ko`rgazmali qurollar
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Bosqich vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1 Bosqich kirish 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va o`quvchilar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (5min)	1.1. Salomlashish, davomat olish, 1.2. O`quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash, o`rganilgan mavzuni so`rash	1.1. Talaba davomatda qatnashadi 1.2. O`rganilgan mavzuni mustahkamlashga tayyorgarlik ko`radilar.
II-Bosqich. Asosiy bosqich. 1.Chaqiruv (15 min).	<p>2.1. O`quvchilarning mavzu yuzasidan bilim darajasini aniqlash uchun chaqiruv bosqichini tashkil qiladi, ya`ni ularga darxatga yopishtirilgan mevali ko`rgazmalar orqali quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Estetik ong deganda nimani tushunasiz? • Estetik madaniyat nima tarkibida shakllanadi? • Estetik did va baho nima? <p>2.2. O`qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon qiladi.</p> <p>2.3. Ma'ruza taqdimoti davomida o`quvchilarga o`quv axboroti bo'yicha muammoli savollar bilan murojaat qilab boradi.</p> <p>2.4. Ma'ruzada keltirilgan o`quv axboroti bo'yicha fikrlash jarayonini tashkil qiladi.</p> <p>2.5. O`quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Estetika qaysi fanlar negizida shakllanadi? - ong va madaniyat tushunchalarining o`zaro aloqasi -ma`naviyatsa estetikaning o`rnii va ahamiyati qanday? <p>Estetik faoliyat nimalarda namoyon</p>	<p>2.1. Savollarga o`z bilim va dunyoqarash doirasida javob beradilar.</p> <p>2.2. Bildirilgan fikrlar asosida o`zaro munozarada qatnashadilar, asosli dalillarni keltiradilar.</p> <p>2.3. Savol berib asosiy joylarni yozib oladi.</p> <p>2.4. Eslab qoladilar.</p> <p>2.5. Ma'ruzani tinglaydilar, mazmunini tezis shaklida yozib boradilar.</p> <p>2.6. O`qituvchi tomonida o`rtaga tashlangan muammoli savollarga javob beradilar.</p> <p>2.7. Ma'ruzaning uchinchi bosqichi, ya`ni ma'ruza davomida keltirilgan axborot mazmuni, uning muammolilik jihatlari haqida fikrlaydilar.</p> <p>2.8. O`qituvchi tomonidan berilgan</p>
2. Mazmunni tushunib etish (25 min)		

3.Fikrlash. (20 min)	bo`ladi?	<p>savollarga javob beradilar.</p> <p>2.9. o`quvchilar keltirgan javoblarini misollar orqali asoslaydilar.</p> <p>2.10.O`quvchilar yangi mavzu bo`yicha berilgan mashqlarni bajaradilar va bilimlar bilan qurollanadilar.</p>
III-Bosqich. Yakuniy (10 min)	<p>3.1. O`qituvchi mashg`ulotga yakun yasaydi, o`quvchilarning fikrlarini umumlashtiradi.</p> <p>3.2. Ma`ruzada keltirilgan asosiy g`oyalarga alohida to`xtaladi.</p> <p>3.3. “Bilimlar sarchashmasi” ko`rgazmasi orqali yangi mavzuning o`zlashtirish darajasini nazorat qiladi.</p> <p>3.4. O`quvchilarning yangi va o`rganilgan mavzu bo`yicha bilim darajasi baholanadi</p>	<p>3.1. O`qituvchiga savollar bilan murojaat qiladilar.</p> <p>3.2. O`quvchilar yangi mavzu bo`yicha bilimini mustahkamlaydilar</p> <p>3.3. o`rganilgan yangi mavzu orqali bilganlik darajasini aniqlaydilar</p>

O`quvchilarda estetik idrokni rivojlantirishning eng zarur
psixologik omillari

Nº	Psixologik omillar	
1	2	3
1	Shaxs temperamenti	
2	Ruhiy va jismoniy sog'lomlik	
3	Shaxs qiziqishi	
4	Shaxs ustanovkaları	
5	Qadriyatları	
6	Tarbiyaning ilmiy tashkil etilganligi	
7	Jamoadagi sog'lom va ijodiy muhit	
8	O`qituvchi shaxsining madaniyati	
9	Tasavvurning boyligi	
10	Ijodiy qobiliyatning mavjudligi	
11	Dunyoqarash kengligi	
12	Hamkorlik va do'stona munosabatlar	

O'quvchilarning temperament tipiga mansubligi

Nº	Temperament	Jami (foiz hisobida)	Qiz o'quvchilar (foiz hisobida)	O`g'il o'quvchilar (foiz hisobida)
1	2	3	4	5
1	Xolerik	33	69	31
2	Sangvinik	27	63	37
3	Flegmatik	23	57	43
4	Melanxolik	17	53	47

So'rovnoma

№	So'rovnoma savollari	Javoblar foiz hisobida	
		ha	yo'q
1	2	3	4
1	Kundalik rejim asosida ish yuritasizmi?	86	14
2	Ertangi kunim bugunimdan yaxsi bo`ladi deb hisoblaysizmi?	68	32
3	Musiqa doimiy xamroxingizmi ?	74	26
4	Tabiat qo`yniga tez-tez sayoxat qilasizmi ?	71	29
5	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullananasizmi?	70	30
6	Bo'sh vaqtdan unumli foydalananasizmi?	63	37
7	Badiiy asarlar o`qiysizmi ?	52	48
8	Xozigi urfdagi kiyimlar sizni qoniqtiradimi?	52	48
9	Estetik tarbiya belgilari nasldan-naslga o'tishi mumkin deb hisoblaysizmi?	51	49
10	Borliqni o`zgartirishni istaysizmi?	50	50

Kollejda o`tkazgan ochiq darsimizning

TAQDIMOT QISMI


Mavzu:

Estetik ong va uning turlari.

Reja:



Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi



Estetik ong va uning turlari



Estetik his-tuyg'u, estetik baho, estetik did haqida tushuncha

*“Ongni, tafakkurni
o`zgartirmasdan turib biz
ko`zlagan oliy maqsad –
ozod va obod jamiyatni
barpo etib bo`lmaydi”*



Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi

*Estetik ong va estetik faoliyat o`zaro bog`liq bo`lib, estetik faoliyat **estetik ong asosida** vujudga keladi, shakllanadi, ya`ni estetik faoliyat ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirishdir. Agar muayyon talab- ehtiyojlar bo`lmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmaydi.*

Estetik talab- ehtiyojlar** insonni faoliyatga undaydi. **Faoliyat esa yangi talab va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.


*Insonning har qanday faoliyatida
estetik manba manbai mavjud
bo`lib, u o`z faoliyati davomida
moddiyat bilan birga
ma`naviyatga, ya`ni shodlik,
sevinch, orzu - umid, erk ozodlik
tuyg`ulariga suyanib yashaydi,
voqeal va hodisalarini ijtimoiy
baholashga harakat qiladi. Inson
o`zining bu xususiyatini yo`qotib
qo`ysa, uning faoliyati mohiyat
tabiatidan mahrum bo`lib qoladi.*




*Estetik ong kishining tabiat va
jamiyat bilan o`zaro aloqasi
jarayonida, mehnat
jarayonida paydo bo`ladiva
rivojlanadi.*

*Estetik ong hayotning hamma
sohalarini - tabiatni ham,
kishining olamni
o`zlashtirishga qatatilgan
faoliyatni ham qamrab oladi.*







*Estetik his – tuyg`u
deganda nimani
tushunasiz?*

A scene from an animation showing a character in a green hooded cloak looking through a circular opening in a wall.

*Estetik his - tuyg` u insonning
voqealikka, kishilarga, o`z
faoliyatiga nisbatan
munosabatidir. Bu tuyg` u
bizni o`rab turgan voqealikni
estetik jihatdan his etish
qobiliyatidir, uning
go`zalligini, uyg`unligini
sezishdir.*



Estetik tuyg' u ijtimoiy va tabiat hodisalarining go'zalligidan, inson go'zalligidan, inson mehnati, ijtimoiy faoliyat va san'at go'zalligidan zavq olishda namoyon bo'ladi. estetik his tuyg' u bu chuqur manaviy tuyg' udir. O'z ishini vijdonan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, hayotidan mammunlik tuyg' usi kuchli bo'ladi, shunday tuyg' u bilan yashash insonga estetik zavq beradi.

Belinskiy shunday deydi...



Estetik his - tuyg' uni bolalarda ham rivojlantiring, tarbiyalang.

Bu barcha go'zallik va oliyjanoblik manbaidir.

Qayqovus ham o`zining
“Qobusnoma” asarida his tuyg` u
azolarining ahamiyati tog` risida
shunday deydi: “Qachonki,
sezgilaring ishdan chiqib
eshitmoq, ko`rmoq, mazani
bilmoq, qattiq va yumshoqni
ushlab bilish lazzatidan mahrum
bo`lsang, bunday yashashdan
o`zing ham shod bo`la
olmasang, boshqalarni ham shod
qila olmasang, boshqalarni
bo`yniga tushgan og`ir yuk
bo`lasan, bu hilda yashashdan
o`lim yaxshiroqdir”, - deganlar.



Estetik did

*Estetik did murakkab va ko`p
qirralidir. Estetik did
insonning fikr – mulohazalari,
xulq-atvori, xatti-harakatlari,
moddiy va ma`naviy
ijodkorligi orqali namoyon
bo`ladi. Estetik did zaminida
go`zallikni xuniklikdan ajrata
bilish va undan beg`araz
shodlanish, lazzatlanish
qobiliyati yotadi.*



*Estetik did insonning dunyoqarashi,
ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq
ko`rinadi. Lekin estetik qarashlar va
bilimlar hamma vaqt ham estetik didni
ifodalama yди. Bazan inson muayyan estetik
qarashlar va estetik bilim larga ega bo`lib
turib ham past yoki rivojlanmagan estetik
did egasi bo`lishi mumkin.*



*Farobiy “estetik did go`zallik
va huniklik to`g`risida hukm
chiqarishdir” -deb ta`riflaydi*



*Estetik did bir o'rinda estetik
baholshhamdir, masalan biron
tomoshadan so'ng kishilar
“yoqdi”, “yoqmadi”, “maroqli”,
“zerikarli” deb hukm
chiqaradilar. Bu hukm didning sof
bahosi hisoblanadi.*



Estetik baho



*Estetik baho predmet yoki hodisaning
qiymati va kamchilik nuqsoni haqida hukm
chiqara olishdir. Biz voqealikka estetik baho
berar ekanmiz, emotsional jihatdan o'sha
narsa bizda uyg'otgan tuyg'uni ifodalaymiz.
Masalan nurofshon ko'cha, sershovqin
shaxar, ajoyib inson kabilar.*

*Estatik baho umuman voqealikka, jumladan,
istagan bir aniq buyumga bo'lgan nuqtai
nazarimizning ajralmas qismidir.*

Estetik did va estetik baholash o'rtaasida farqli va umumiy tamonlar mavjud.



Estetik baholash – didning aynan o'zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og'zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy tomon ko'proq o'rinni egallaydi. Did fikr-mulohazalari doimo baholanayotgannarsaning, voqeа hodisaning anglab o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, boshqalarga mo'ljallangan holda dalillaming mantiqiy isbotlanishini taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda estetik baho jamiyat va tabiat hodisalari, inson mehnatining, sa'nat asarining mahsuli haqida asosli estetik muhokamaning natijasidir.

ETIBORINGIZ UCHUN RAXMAT

**Urganch ijtimoiy-iqtisodiyot kollejida o`tkazgan ochiq
darsimizdan sur`atli namunalar**



O`quvchilarni estetik qobiliyatini aniqlash maqsadida ko`rmasdan paypaslab top qiziqarli o`yini jarayoni



O`quvchilarni dars davomida olgan bilimlarini baholash natijasida taqdim qilingan savollarga javob berayotgan jarayoni



O`quvchilarni tezkorligini aniqlash maqsadida “Qaysi uzum tez pishdi” metodi orqali baholash





Guruxlararo berlashish jarayoni



O'quvchilarni individual baholash jarayoni



"Sardorlar berlashuvi" jarayoni





"Omadli o'yin" o'zini omadli sanagan o'quvchilar sharlarni yorish orqali rag'bat kortochkasiga ega bo'ladilar





Eng faol o`quvchilarni taqdirlash jarayoni





Guruhlarni maqtov yorliqlar bilan taqdirlash jarayoni





Darsimizni yakuniy bosqichi





Dars jarayonini qanday o`tkazilganligini o`quvchilar tomonidan aniqlash uchun “Smailki”lardan foydalanildi va darsga baho berildi va ko`zlangan natijaga erishildi.

**Ал-Хоразмий номли УрДУ Педагогика мутахассислиги магистранти Якубова
Шахноза Эркинбаевна "Касб – хунар колледжларида эстетик тарбияни амалга
оширишнинг инновацион услублари" мавзусидаги илмий диссертация ишига**

ТАҚРИЗ

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш
миллий дастури” мазмунида баркамол шахсни тарбиялаб вояга етказиш жараёнининг
моҳияти тўлақонли очиб берилган.

Ҳар қандай жамиятда бўлгани каби бизнинг жамиятимизда ҳам ҳар бир алоҳида
шахс ва яхлит ҳалқ манфаатларини ҳимоя килувчи, уларни бирлаштирувчи, юрт тинчлиги
ва турмуш фаровонлигини таъминловчи илғор ғоялар борки, уларнинг ҳар бир фуқаро
томонидан англаганлик даражаси ана шу жамиятнинг ривожланиши тамойилларини
белгилайди. Шу маънода шахсдаги ахлоқийлик ва эътиқодийликни ана шундай соғлом
эстетик дунёқарашларни, теран фикрлашни таъминловчи ижтимоий психологик омил
ҳамда шарт-шароит деб эътироф этиш мумкиндирики, унинг моҳиятини илк бораликдан
оила мухитида, ундаги қадриятлар доирасида, ота-онанинг обрўси, билимдонлиги, ўрнак
бўлувчи шахс сифатидаги таъсирида улар онгига сингдириш психологик аҳамиятга эга.
Чунки оила асрлар мобайнида ҳалқ анъаналари, миллий расм-русумлар ва одатларни
сақлаб ҳамда намоён этиб келаётган ноёб макондир.

**Илмий диссертация ишининг “Кириш” қисми ва илова қилинган
материалларнинг тарқиби ва бажарилиш сифати.** Илмий ишининг кириш қисмидаги
мавзунинг долзарблиги, илмий ўрганилганлик даражаси, методологик асоси ва муҳим
манбаси, мақсад ва вазифалари, обьекти, предмети, илмий фазаси, амалий аҳамияти,
тарқибий тузилиши ва ҳажми ўз аксини топган бўлиб, тўла талабга жавоб беради.

Илмий диссертация ишда илмий манбалар. Фан-техника инновация ютуклари
натижаларидан фойдаланилганлиги. Илмий диссертация ишда илмий адабиётлардан,
инновацион ютуклар натижалардан, президент асарларидан кенг фойдаланган.

**Илмий диссертация ишнинг илмий-услубий ва технологик жиҳатдан
асосланганлиги.** Илмий ишда барча маълумотлар умумлаштирилган ва таҳлил қилинган.
Иш илмий-услубий жиҳатдан тўла асослаб берилган. Амалий аҳамияти ҳам кўрсатилган.

Илмий диссертация ишнинг ижобий томонлари. Берилган тавсияларни ишлаб
чиқиша ва таълим-тарбия жараённида фойдаланиш имкониятлари. Илмий диссертация
ишда мавзунинг ижтимоий-педагогик ва психологик жиҳатлари жамият
ривожланишининг замонавий тенденциялари, хукукий баркамол шахс камолоти
масалаларидан келиб чиқсан ҳолда ёритиб берилган.

Мазкур илмий диссертация иши университетнинг Педагогика ва психология таълим
йўналиши талабалари мустақил илмий тадқиқот ишларини олиб борища
фойдаланишлари мумкин. Юқоридагилардан келиб чиқиб, мазкур илмий диссертация
ишни ДАК ҳимоясига тавсия этаман.

Тақризчи:

XBХТХҚТМОИ

Педагогика, психология ва таълим
менежменти кафедраси
катта ўқитувчиси И.Р.Рахимова



**Ал-Хоразмий номли УрДУ Педагогика мутахассислиги магистранти
Якубова Шахноза Эркинбаевна "Касб – хунар колледжларида эстетик
тарбияни амалга оширишнинг инновацион услублари" мавзусидаги
илмий диссертация ишига**

ТАҚРИЗ

Жамиятимизнинг мустақил тараққиёт йўлини таъминлаш учун ижтимоий-сиёсий, иқтисодий-маданий ва маънавий-маърифий соҳаларда чукур ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бу жараёнларнинг тараққий этишида албатта баркамол инсон гояси, шахснинг эстетик дунёқарashi, эстетик маданияти алоҳида ўрин эгалайди.

Бугунги кунда ўзиннинг эстетик маданиятига, дунёсига эга бўлган, шу билан биргаликда миллий асосга қурилган ва жаҳондаги илғор давлатлар таълими тараққиёти тажрибаларига таянадиган кадрлар тайёрлаш тизимини яратиш асосий вазифаларидан бирига айланди.

Илмий диссертация ишининг кириш қисмида коллеж ўқувчиларида эстетик тарбияни шакллантиришнинг инновацион усуллардан фойдаланиш, унинг амалий аҳамияти, бугунги кундаги долзарблиги яққол кўрсатиб ўтилган. Коллеж ўқувчиларида таълим-тарбия сифатини оширишда эстетик тарбиянинг муаммоли томонлари, илмий-амалий аҳамияти, инновацион томонлари ва эстетик тарбияни шакллантиришда замонавий педагогик ва ахборот технологияларни таълим тизимига жорий этиш масалалари илмий диссертация ишининг биринчи ва иккинчи бобларида кўрсатилган.

Илмий диссертация ишида эстетик тарбияни амалга оширишда таълим жараёнини модернизациялаш, ўқув дастурларини янада такомиллаштириш, ўқув жараёнинга замонавий педагогик инновацион технологияларни жорий қилиш, техник воситаларидан кенг фойдаланишнинг долзарб томонлари илмий ишда ёритилган.

Илмий ишнинг назарий томонлари амалий аҳамияти юқори тарзда талқин қилинган. Шунингдек, инновацион янгилик сифатида эстетик тарбияни шакллантиришда ўқувчиларнинг сенсор тарбиясига таъсир кўрсатиш муҳимлиги янгилик сифатида илмий ишда ўз аксини топган.

Мазкур илмий диссертация ишидан университетнинг Педагогика ва психология таълим йўналиши талабалари мустақил илмий тадқиқот ишларини олиб бориша фойдаланишлари мумкин. Юқоридагилардан келиб чиқиб, мазкур илмий диссертация ишини ДАК химоясига тавсия этаман.

Тақризчи:


доц. Солаева Мухаббат